

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI

**BOSHLANGICH TA'LIM KAFEDRASI
TABIATSHUNOSLIK VA UNI O'QITISH METODIKASI
FANIDAN**

RAQAMLI USLUBIIY TA'MINOT



Bilim sohasi: 100 000 – gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 110000 – pedagogika

Ta'lim yo`nalishi: 5111700 – boshlang`ich ta'lim va sport tarbyaviy ish

Termiz-2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUSTA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

**TABIATSHUNOSLIK VA UNI O'QITISH METODIKASI
fanidan**

RAQAMLI USLUBIIY TA'MINOT

**(5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat
ta'lim yo`nalishi 4-kurs talabalari uchun)**

Termiz - 2021

Tuzuvchi: D.Kadirova - TerDU “Boshlang’ich ta’lim”
kafedrası dotsenti, biologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchilar: X. Norbo’tayev - TerDU “Boshlang’ich ta’lim”
kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari doktori.

Sh. Yoqubov - TerDU “Boshlang’ich ta’lim ”
kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Ushbu raqamli uslubiy ta’minot Termiz davlat universiteti o’quv - uslubiy Kengashida ko’rib chiqilgan va tasdiqlangan (2021-yil “28” avgusdagi 1-sonli bayonnoma).

I	MUNDARIJA	
I.1	MA`RUZA MATERIALLARI	
1.	1-Mavzu: Boshlang`ich maktablarda tabiatshunoslik faning mazmuni, o`quv dasturini rejalashtirish tamoyillari.	
2.	2-mavzu: 1-sinf “Atrofimizdagi olam” darsliugi bilan tanishish va tahlil.	
3.	3-mavzu: 2-sinf “Atrofimizdagi olam” darsliugi bilan tanishish va tahlil.	
4.	4-mavzu: 3-sinf “Tabiatshunoslik” darsliugi bilan tanishish va tahlil.	
5.	5-mavzu: 3-sinf “Tabiatshunoslik” darsliugi bilan tanishish va tahlil.	
6.	6-mavzu: Oz komplektlangan maktablarda o`quv-tarbiya jarayonini tashkillashtirishning o'ziga xosligi.	
II	AMALIY MASHG`ULOTLARI MATERIALLARI	
1.	1-Amaliy mashg'ulot: Tabiatshunoslikdan sinfdan tashqari mashg'u- lotlarni tashkil etish.	
2.	2 - Amaliy mashg'ulot:Tabiatshunoslik darslarid tabiat kalendari bilan ishlash metodikasi	
3.	3-Amaliy mashg'ulot: Tabiatshunoslikni o`qitish jarayonida boshlang'ich sinf o`quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.	
4.	4-Amaliy mashg'ulot: Tabiatshunoslik darslarida o`quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish.	
5.	5 - Amaliy mashg'ulot: Atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik darslarida kuzatish orqali yangi bilim va tushunchalarni shakllantirish.	
6.	6- Amaliy mashg'ulot: Ekologik madaniyatini shakllantirishda o`qituvchining kuzatishga yo`naltirilgan topshiriqlar.	
7.	7 - Amaliy mashg'ulot: Tabiatshunoslik darslarida kuzatish ishlarini tashkil etish.	
8.	8-Amaliy mashg'ulot: Tabiatshunoslik darslarida laboratoriya mashg`ulotlari.	
9.	9- Amaliy mashg'ulot: Tabiatshunoslik darslarida amaliy ishlar.	
10.	10- Amaliy mashg'ulot: Tabiatshunoslik darslarida didaktik o`yin, o`quv munozaralari, burch va ma'suliyatini shakllantirish) metodlari guruhi.	
11.	11- Amaliy mashg'ulot: Tabiatshunoslik darslarida nazorat va o`z-o`zini nazorat (og`zaki va yozma) laboratoriya va amaliy ish o`zaro nazorat varag`i yordamida, EXMning nazorat dasturlari vositasida) metodlar guruhi.	
III	GLLOSSARIY.....	
IV	ILOVALAR.....	
1.	FAN DASTURI.....	

2.	ISHCHI O`QUV DASTURI.....	
3.	MUSTAQIL TA`LIM MASHG`ULOTLARI	
4.	BAHOLASH MEZONLARI.....	
6.	TARQATMA MATERIALLAR.....	
7.	O`QMning elektron varianti.....	

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUSTA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

**TABIATSHUNOSLIK VA UNI O'QITISH METODIKASI
fanidan**

MA'RUZA MATERIALLARI

**(5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat
ta'lim yo`nalishi 4-kurs talabalari uchun)**

Termiz – 2021

Annotatsiya

Mazkur ma'ruza matnida Tabiatshunoslikni o'qitish tamoyillari va qonuniyati; Boshlang'ich sinf o'quvcilarida tabiatshunoslik tasavvur va tushunchlarni shakllantirishning metodik asoslari; Tabiatshunoslikni o'qitish metodlari. Metodlar klasifikatsiyasi; Tabiatshunoslikdan o'quv ishlarini tashkil etish shakllari; Darsdan tashqari ishlar - o'quv ishlarini tashkil etishning zaruriy shakli; Tabiatshunoslik fani bo'yicha o'quvchilar bilimlarini nazorat qilish va baholash; Tabiatshunoslikni o'qitish vositalari; jo'g'rofiya maydonchasi, o'quv-tajriba uchastkasi va tirik tabiat burchagini jihozlash va ularda mashg'ulotlarni tashkil qilish; Boshlang'ich maktablarda tabiatshunoslik faning mazmuni, o'quv dasturini rejalashtirish tamoyillari; Atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik darsliklari bilan tanishish va tahlil, oz komplektlangan maktablarda o'quv-tarbiya jarayonini tashkillashtirishning o'ziga xosligi, shuningdek, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar bilan ishlash metodikasiga e'tibor qaratildi.

Ma'ruza matni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018- yil 25- avgustdagi 744 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

Ma'ruza matni 5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriatta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari uchun talabalari uchun.

Tuzuvchi: D.Kadirova - TerDU "Boshlang'ich ta'lim"
kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchilar: X. Norbo'tayev - TerDU "Boshlang'ich ta'lim"
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori.

Sh. Yoqubov - TerDU "Boshlang'ich ta'lim "
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

KIRISH

Mazkur ma`ruza matnida o`quv dasturiga asoslangan holda ma`ruza, amaliy va seminar mashg`ulotlarining mavzulari kiritilgan. shuningdek, unda o`qitishga oid ilmiy va amaliy bilimlarni ma`lumotlarni chuqur, atroflicha mushohada qilishga hamda mustaqil o`rganishga qaratildi.

O`quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani boshlang`ich sinflarda amalga oshirishda tabiatshunoslik fani muhim rol o`ynaydi. Bu predmetni o`rganish kichik yoshdagi o`quvchilarning shaxsiy tajribasini boyitadi, atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to`g`risida bilimlar to`plashga imkon beradi. Shuning uchun ham pedagogika oliy o`quv yurtlarining talabalari, ayniqsa, bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilari, pedagogik o`quv fani sifatida tabiatshunoslik va uni o`qitish metodikasining ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlari bilan yaxshi tanish bo`lishlari lozim.

Shuningdek, tabiatshunoslikni o`qitishda o`quvchilarga ekologik ta`lim berish mazmunidagi bilimlar ham singdirilgan bo`lib, undagi o`quv materiallari bevosita tabiat bilan tanishish jarayonida o`rganiladigan bilimlar o`quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko`nikma va malakalari tarkib topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiat xilma-xil ko`rinishlari bilan insonni qurshab turgan moddiy olamdan tuzilgan. O`quvchilarga ekologik ta`lim-tarbiya berishdan maqsad-tabiatni bilish va uni asrashga o`rgatish, ekologik ta`lim-tarbiyaga oid nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Jumladan, metodika o`qituvchi tomonidan o`quv materialni o`qitishning muvofiq (ratsional) ravishdagi metod va vositalari o`quvchilarning tabiat haqidagi eng sodda bilimlarni egallashi hamda kelajakda o`quvchilar qo'llay olishi uchun faqat nasihatlar majmuasi bo'libgina qolmasdan, u fan, uning tamoyillari, tabiatshunoslik o`qitish jarayonining qonuniyatlarini bilishga ham asoslangan.

3-Modul. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi

1- MA'RUZA: BOSHLANG'ICH MAKTABLARDA TABIATSHUNOSLIK FANINING MAZMUNI, O`QUV DASTURINI REJALASHTIRISH TAMOYILLARI

REJA :

1. 1-2 sinflarda “Atrofimizdagi olam” fanining mazmuni, o`quv dasturini rejalashtirish tamoyillari.

2. 1-2 sinflarda shakllanishi lozim bo`lgan asosiy tushunchalar.

3. 3-4 sinf “Tabiatshunoslik” fanining mazmuni, o`quv dasturini rejalashtirish tamoyillari.

4. Tabiatshunoslikni o`qitishda fanlararo aloqadorlikning o`rni va ahamiyati.

Tayanch iboralar: “atrofimizdagi olam”, “tabiatshunoslik”, “o`lkashunoslik”, “fanining mazmuni”, “o`quv dasturi”, fanlararo aloqadorlik, “darslik bilan ishlash metodikasi.

1-2 sinflarda “Atrofimizdagi olam” darsligi bilan tanishish va tahlil. 1-2 sinflarda “Atrofimizdagi olam” darsligi bilan ishlashning metodik xususiyatlari. 1986 - yildan boshlab maktablarda 4 yillik boshlang'ich ta'limga o'tish munosabati bilan boshlang'ich sinf uchun tabiatshunoslik boyicha dastur hamda “Tabiatshunoslik” kursi boyicha o'quv-metodik komplekslar (darsliklar, metodik qo'llanmalar, kuzatishlar kundaligi) nashr qilindi. Ushbu dastur va darsliklar Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng uning dastlabki yillariga qadar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Uzluksiz ta'lim tizimida davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida” gi 1998 yil 5 yanvar qarori chiqdi va ushbu qarorga binoan “Davlat ta'lim standarti to'g'risidagi Nizom” tasdiqlandi. Unda boshlang'ich ta'lim 4 yillik deb qabul qilindi va 3-4 sinflarda “Tabiatshunoslik” fanining o'qitilishi ko'rsatib o'tildi.

“Atrofimizdagi olam” darsligi bilan ishlash. Atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha birinchi darsda bolalarni darslik bilan: muallifi, titul varag'ining mazmuni, bezatilishi bilan tanishtirish kerak, kitob bilan tanishtirish mundarijasi bo'yicha bo'ladi. Bolalarni darslik bilan ishlashga o'rgata borib, o'qituvchi ularga ishdagi izchillikni tushuntirishi kerak: avval rasmlar qarab chiqiladi, so'nggra maqollar o'qiladi, shundan keyin savollarga javoblar olinadi.

Darslikdagi hamma maqollarni ham o'qib aytibberish mo'ljallanmagan, ularning ba'zilarini bolalar faqat o'qib chiqishlari va savollarga javob berishlari kerak xolos, ba'zilar bo'yicha ishning qisman ikkala turi amalga oshiriladi. Olib

boriladigan ishlar hikoyaning mazmuniga, hikoya tilining qiyinligi yoki tushunarligiga bog'liq.

Darslik mazmuniga she'rlar, maqollar, matallar, topishmoqlar, hikoyalar, ertaklar kiritilgan. "Bizning maktab", "Bizning mahalla", "Bizning bog'", "Biz va tabiat" mavzulari bo'yicha tekstlar qisqacha ishchanlik ruhidagi maqolalar tarzida berilgan.

Darslikdagi she'rlarni, albatta yod olish shart emas. Asosiy maqsad - mavzu mazmunining mohiyatini tushunishdir.

1-2 sinflarda shakllanishi lozim bo'lgan asosiy tushunchalar. Mavzu bo'yicha yangi atamalar va xulosalar darslikda yo'g'on harf bilan ajratilgan, bu esda yaxshi qoldirishga yordam beradi. Xalq ertaklarining har xil vaziyatlarda tasvirlangan qahramonlari ko'pgina mavzularda bordir. Ular go'yo bolalar bilan birga atrof olamni bilib olishga o'rganadilar. Bunday uslub o'qituvchiga o'yin vaziyatini o'rgatishga va yaratishga, bolalarda tabiatga va o'quv faniga qiziqishni oshirishga yordam beradi. Rasmlar bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, shunga ko'ra ulardan ko'rilayotgan rasmda ilgarigiga qaraganda nimalar yangi vujudga kelganini so'rash zarur. Darslik rasmlar bilan bezatilgan, ularga savol va topshiriqlar berilgan. Ularning ba'zilar o'qituvchiga bolalar e'tiborini tabiat jismlari va hodisalarining har xil xususiyatlari, belgilarini aniqlashga, bu bilan dars mavzusi bo'yicha faktik materialni umumlashtirishga qaratishga yordam beradi. Savol hamda topshiriqlarning guruhi ikki yoki bir nechta rasmlarni o'zaro taqqoslashni talab qiladi yoki tabiat va odamlar mehnatidagi ba'zi sabab bog'lanishlarni ochishni taklif qiladi. Darslikning savol va topshiriqlari o'qituvchiga bolalar e'tiborini maqola mazmuniga qaratishga, undagi asosiylarni aniqlashga yordam beradi. Savollar yordamida bolalar o'rganiladiganlarni chuqur va ravshanroq tasavvur qiladilar.

Darslik materialida har bir mavzu bo'yicha o'rganilganlarning asosiy mazmunini aks ettiruvchi va tushunchalar mohiyatini ochib beruvchi qisqacha xulosalar ham bor. Tabiatshunoslik mazmunidagi matnlardan keyin tabiatdagi kuzatishlar uchun topshiriqlar, amaliy ishlarning rejalari berilgan. Darslikda ekskursiya hamda fan bo'yicha darslar o'tkazish uchun savol va topshiriqlar ko'rinishidagi material bor.

Darslik yil fasllarining O'zbekiston uchun xos belgilarni ta'riflaydi, bolalarning tabiatdagi kuzatishlarini osonlashtiradi, jonsiz va tirik tabiat o'zaro bog'lanishlarini ta'kidlaydi.

Darslikning asosiy g'oyasi - insonning tabiat bilan o'zaro aloqasi, inson mehnatining tabiatdagi ahamiyati, unda yurish-turishning qoidalaridir. Ijtimoiy hayotning hodisalariga bag'ishlangan maqolalari bolalar e'tiborini inson, jamiyat va tabiatning birligiga qaratadi.

3-4 sinf “Tabiatshunoslik” darsligi bilan tanishish va tahlil. 3 sinfda tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. Tabiatshunoslikni alohida fan sifatida o'qitish 3-sinfdan boshlanadi. O'quv material “Yer usti va yer osti suvlari”, “Suvning xususiyatlari”, “Suvni muhofaza qilish va tejash”, “Tabiatda havo” “Foydali qazilmalar qayerdan olinadi?”, “Yoqilg'i sifatida foydalaniladigan qazilmalar.”, “Yoqilg'i sifatida foydalaniladigan qazilmalar”, “Tuproq,uning tuzilishi” “Tabiiy o'simliklar “Madaniy o'simliklar” kabi mavzulariga birlashtirilgan. Tabiatshunoslik bo'yicha dastur kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga faqat jonajon tabiat go'zalligi va boyliginigina emas, balki boshqa mamlakatlar xalqlari bilan qardoshlarcha hamkorlikda o'z mamlakatining ahamiyatini ko'rsatishga ham imkon beradi.

O'z Vatanining tabiati va odamlari mehnati to'g'risidagi bilimlarning keng doirasi o'qituvchiga umumiy ta'lim va hunar maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari qo'ygan eng muhim ta'lim tarbiya vazifalarini amalga oshirishga imkon beradi.

“Suvning xususiyatlari” va “Tabiatda havo” bo'limi mavzularini o'qitishda o'quvchilar ob-havoni muntazam kuzatishni davom ettiradilar: bulutlanishni, shamol kuchini (kuchli, bo'sh, mo'tadil) belgilaydilar. Fenologik kuzatishlar o'tkazishni davom ettiradilar: kunning uzunligini (kalendar bo'yicha), barglarning sarg'ayishini xazonrezgilikni, yil fasllari bo'yicha o'simlik va hayvonlar holatini belgilaydilar. Barcha kuzatishlar “Kuzatishlar kundaligi” va umumsinf tabiat va mehnat kalendariga yozib boriladi.

Har oyning oxirida kuzatishlar umumlashtiriladi va yig'ma jadvalga kiritiladi. Unda shu oyning fenologik xususiyatlari belgilanadi. Kundaliklarga o'simlik va hayvonlar ustida olib borilgan umumlashgan kuzatishlar yoziladi. O'quvchilar jonsiz tabiatdagi o'zgarishlarning o'simlik va hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar bilan qanday bog'liq ekanligi haqida xulosa chiqaradilar.

“Foydali qazilmalar qayerdan olinadi?” mavzusida quruqlik har xil tog' jinslaridan: granit, qum, loy, kaltsit va boshqalardan iborat ekanligi to'g'risida dastlabki tasavvur beradi. Bu mavzuchada foydali qazilmalarning xususiyatlarini o'rganish markaziy o'rinni egallaydi. Ularni o'rganish o'quv fani darslarda kuzatishlar o'tkazish yo'li bilan olib boriladi. Ekskursiyalar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, ularda bolalar foydali qazilmalarni qazib olish bilan, ishchilar

mehnatini mexanizatsiyalash bilan tanishishlari, o'lkani qanday foydali qazilmalarga boy ekanligini bilib olishlari mumkin.

3-sinfda umumsinf tabiat va mehnat kalendarini yuritish davom etadi, bu ikki yil davomida kuzatilgan hodisalarni taqqoslash imkoniyatini beradi. Har kuni ob-havo, o'simlik va hayvonlar holatini belgilab, o'quvchilar joriy kuzatishlarini o'tgan yili shu kun o'tkazgan kuzatishlari bilan solishtiradilar. Bunday ish kuzatishlarga qiziqishni, ularning sifatini oshiradi, tabiatshunoslik tushunchalarini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. "Tabiiy o'simliklar" va "Madaniy o'simliklar" mavzularini o'rganishda bolalar kuzatish, tajri ba, ekskursiya, amaliy ishlar o'tkazish yo'li bilan o'simlik va hayvonot dunyosining mahalliy vakillari bilan, o'z joyi yuzasining shakllari bilan, suv havzalari va suvning xususiyatlari bilan, tuproq hamda foydali qazilmalar bilan tanishadilar.

Bolalar uchun "Bizning o'lka" tushunchasi hammadan avval ularning uylari va maktabi joylashgan joydir, chunki ular ayniqsa atrof joyda bevosita kuzatishlari mumkin bo'lgan tuproq, o'simliklar, hayvonlar, yer yuzasining shakllari, suv havzalari, foydali qazilmalar bilan tanishadilar.

"Tuproq, uning tuzilishi" bo'limida bolalar ekskursiyada tuproq bilan tanishadilar, tuproq kesmalarini qarab chiqadilar. O'qituvchi ular e'tiborini yer ostida joylashgan tuproq qatlamlari va tog' jinslarining yotishiga qaratadi. Amaliy ish va tajribalar jarayonida o'quvchilar tuproq tarkibi to'g'risida bilib oladilar, o'z o'lkalari tuproqlarining xilma-xilligi to'g'risida tasavvur hosil qiladilar. Bu bo'lim birinchi bo'lib o'rganiladi, chunki u o'quvchilarni qishloq xo'jaligi mehnati bo'yicha mashg'ulotlarga (tuproqni kuzda ishlashga, ko'chat qalinligining ildizmevalar hosiliga va manzarali o'simliklarning gullash vaqtiga, o'g'itlashning ildizmevalarning hosiliga, gul manzarali o'simliklarning o'sishiga ta'sirini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan tajribalar qo'yishga nazariy jihatdan tayyorlaydi. Tuproq tarkibi to'g'risida tasavvurga ega bo'lmay turib, o'quvchilar madaniy o'simliklarning o'sish va rivojlanishi to'g'risida to'la qimmatli bilimlar ololmaydilar.

"Hayvonot olami va uning xilma-xilligi. Yovvoyi hayvonlar". mavzularini o'tishda o'qituvchi o'quvchilarning tabiat ob'ektlarini kuzatishlariga, ularni kuzatishlar kundaligida va sinf tabiat va mehnat kalendarida qayd qilishlariga, kuzatishlarni umumlashtirishlariga va shuningdek, darslik sahifalaridagi topshiriqlarni bajarishlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Mahalliy o'simlik va hayvonlarning bir necha turlari bilan o'quvchilar tabiat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga, shuningdek, o'quv tajriba maydonchasida

o'tkazilgan ekskursiyalarda tanishadilar. E'tibor tirik tabiat burchagi hamda tabiatning o'zida o'simlik va hayvonlarning o'sishi va rivojlanishini kuzatishga qaratilishi kerak.

“Odam tanasi, terisi, skeleti” mavzusini o'rganish bolalar 1-2 sinflarda egallagan sanitariya-gigiyena bilimlari va ko'nikmalari asosida quriladi. Bolalarning xilma-xil hissiyot va qabul qilishlaridan to'laroq foydalanish uchun ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan birga ularni gigiyena qoidalarini amaliy jihatdan bajarishga o'rgatish zarur.

Gigiyena bilimlarining muvaffaqiyatli egallab olinishi o'qitishning barcha xilma-xil metodlari hamda uslublarini qo'llanish bilan ta'minlanadi. Shu maqsadda “Odam organizmi va uning salomatligini muhofaza qilish” mavzusini o'rganishda o'z-o'zini kuzatishdan keng foydalaniladi, uning yordamida faqat organizmda borayotgan jarayonlarni aniqlabgina qolmasdan, balki o'zining salomatlik holatini belgilash ham mumkin. Masalan, yurak qisqarishining tezligiga qarab, yurak va o'pka ishining normadan chekinishi to'g'risida fikr yuritiladi.

Imkoniyat boricha gigiyena qoidalarini muntazam bajarishga intilishni uyg'otuvchi xilma xil hissiy ta'sir ko'rsatish vositalaridan foydalanmoq darkor. Bunday vositalarga qo'l, yuz va bo'yin terisini toza yuvishdan, kiyimlarining bashangligidan, tishlarining sog'lomligidan, xonaning tozaligidan, harakatning chaqqonligidan vujudga kelgan yoqimli taassurotlarni kiritish mumkin. Ayrim hollarda aksincha, salbiy emotsiyalarni: iflosga, pashshalarga va hokazolarga nafratni vujudga keltirish kerak. O'quvchilarni sanitariya tarbiyasida “Salomatlik burchagi”ni tashkil qilish katta ahamiyatga ega, uni o'qituvchi o'quvchilar bilan birga olib boradi. “Burchak”da bolalarga sanitariya va gigiyena qoidalarini eslatib turuvchi plakatlar, ishoralar osib qo'yiladi.

“Odam miyasi, hazm qilish a'zolari, o'pka” mavzusini o'rganishga bag'ishlangan darslarda bir necha minutni sanitar o'quvchilarning shaxsiy gigiyena qoidalarining bajarilishi to'g'risidagi qismlarga ajratish ma'qul bo'ladi. Bu bolalarni intizomli qiladi va ularda mas'uliyat his qilishni tarbiyalaydi. Gigiyena bilimlari hamda ko'nikmalarini egallab olishga bolalarni odam tanasining tuzilishi va a'zolarining vazifalari to'g'risidagi oddiy ma'lumotlar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bolalar odam organizmining bir butun ekanligini tushunib olishlari kerak. Uchinchi sinf o'quvchilari uchun muskullar bilan qon aylanishning, muskullar bilan ovqatlanishning o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar to'la tushunarlidir. “Nerv sistemasi” va “Sezgi organlari” mavzularini o'rgana borib, o'quvchilar ishlayotgan

organlar o'rtasidagi, shuningdek, organizm bilan atrofmuhit o'rtasidagi aloqalarning qanday amalga oshishi to'g'risida ma'lumotlar oladilar.

Gigiyena bilimlari va ko'nikmalarini o'qitishni faqat o'qish vaqti bilan cheklanmaslik kerak. Salomatlikni muhofaza qilishga, kun rejimini, shaxsiy ijtimoiy gigiyena qoidalarini bajarishga, o'quvchilar turmushiga jismoniy mashqlar hamda sport o'yinlarini tatbiq qilishga bag'ishlangan o'qishdan tashqari vaqtlardagi suratlar, kinofilmlar namoyish qilish, shu mavzular bilan bog'liq ertaliklar o'tkazish darslarda olingan gigiyena bilimlari hamda ko'nikmalarini chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi.

"Tabiat va inson" mavzusi bolalarga o'z joylarining yuzasi to'g'risida aniq va tasviriy tushunchalar berish maqsadiga ega. Bolalar O'zbekistonning eng muhim daryolari, ularning hosil bo'lishi, quyilishi, boshlanishi, o'zani to'g'risida dastlabki bilimlar oladilar. Tabiatdagi suv bilan ular mahalliy suv havzalariga ekskursiyaga borganlarida tanishadilar.

4-sinf "Tabiatshunoslik" darsligi bilan tanishish va tahlil. Tabiatshunoslikni alohida o'quv fani sifatida o'qitish 4-sinfda ham davom etadi. O'quv materiali "Yulduzlar. Quyosh", "Sayyoralar", "Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari" "Oy - Yerning tabiiy yo'ldoshi" "Ufq va uning tomonlari", "Yer yuzasining asosiy shakllari", "Yer osti boyliklari", "Xaritalar", "O'zbekiston Respublikasining tabiiy xaritasi", "Suv havzalari", "O'simlik va hayvonot olami" kabi mavzulariga birlashtirilgan.

"Yulduzlar. Quyosh" mavzusini o'rganishning boshlanishida bolalar yozgi topshiriqlarga yakun yasaydilar, jonajon o'lka tabiati to'g'risidagi materialni takrorlaydilar, keyin "Yulduzlar", "Quyosh" mavzulari bilan tanishadilar. Amaliy ish va mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar ayrim narsalarni, sinfni, maktab maydonchasini rejada qanday tasvirlash kerakligi bilan tanishadilar.

"Quyosh" mahalliy belgilar, kompos bo'yicha orientirlashga o'rganadilar. Bu mavzucha o'quvchilarni geografiya xaritasini tushunishga olib kelish uchun zarur asos bo'lib xizmat qiladi. O'z joyini o'rganishga asoslanib, o'qituvchi o'quvchilarda O'zbekistonning tabiiy xaritasi to'g'risida, boshlang'ich tasavvurlar hosil qiladi. Xarita bilan ishlash butun o'quv yili davomida davom etadi.

Xaritalarda foydalanilgan shartli belgilar bilan o'quvchilarni tanishtira borib, ularni o'z o'lkasi tabiatining tegishli rasmlari bilan taqoslash kerak. Shunga intilish kerakki, xarita ham bolalar uchun kitob kabi bilim manbai bo'lib qolsin.

"Yer yuzi tabiatining xilma-xilligi" kichik mavzusi bolalarni mamlakatimiz tabiatning xilma-xilligi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar bilan tanishtiradi. "Yer yuzi tabiatining xilma-xilligi" mavzusini muvaffaqiyatli ravishda o'rganish uchun tabiiy

va tabiiy zonalar) xaritalaridan, gerbariy, devoriy surat, kinofilm, rasm, jurnal va gazetalardagi fotosuratlardan, radio va teleko'rsatuvlardan keng foydalanish zarur.

Xaritani o'qishda shartli belgilardan foydalanib, o'quvchilarda xaritada yozilgan har bir zonaning tabiiy sharoitlari xarakteristikasi: 1-xaritadagi holati; 2-daryo va ko'llari; 3-yil fasllari; 4-o'simliklari; 5-hayvonot dunyosi; 6-shahar va qishloqdagi odamlar mehnati kabilarni o'z ichiga olgan rejadan foydalanishga o'rgatish kerak. Ular xaritadan har bir zonani, ularning qaysi qismida joylashganligini ko'rsatib bera olishlari kerak.

Tabiiy zonalar reliefi umumiy doirada, masalan, "asosan tekisliklar va tog'lar va hokazolar bor" tarzida ta'riflanadi. Yil fasllarini xarakterlash qish va yozning xarakterli harorati va yog'inning ko'pozligini tasvirlash bilan birga olib boriladi. Bunda yil fasllarining xususiyatlarini shu hududda Quyoshning yoz va qish vaqtlarida yoritish xakteri bilan bog'lash lozim. Masalan, "Cho'lda Quyosh yozda ufqdan yuqoriga ko'tariladi va deyarli tik tushuvchi nurlari Yer yuzasini kuchli qizdiradi yoki "Tundrada, hatto yozda ham Quyosh ufq ustida pastda turadi va uning nurlari yer yuzasi bo'ylab qiya holda o'tadi, uni kuchsiz ravishda qizdiradi". O'quvchilar yil fasllari, o'simliklari, hayvonot dunyosi, qishloq xo'jaligidagi odamlar mehnati to'g'risida hikoya qilayotganlarida bunday talqinlarga asoslanishlari kerak. Mantiqiy mulohazaning bunday izchilligi faqat ushbu mavzuninggina emas, balki ilgari mavzuning ham - Yerning sharga o'xshashligi va uning holatini Quyosh atrofida yillik harakati vaqtida o'zgarishi to'g'risidagi materialni ongli o'zlashtirib olinishiga yordam beradi.

Bilimlarni mustahkamlash va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun xarita bo'ylab xayolan sayohat o'tkazish foydalidir, bu sayohat vaqtida bolalar yo'lga nimalar kiyib olishlarini, yo'lda nimalarni ko'rishlarini, qanday o'simlik va hayvonlar uchrashini aytishlari kerak bo'ladi. U yoki bu zonaning tabiiy sharoitlarini ta'riflashda bolalar o'simliklar dunyosini ta'riflashga ko'proq e'tibor berishlari kerak. Bunda o'simliklarga umumiy xarakteristika berish, o'simliklarning tipik turlarini ta'riflash va ularning gerbariy namunalarini ko'rsatish kerak. Shunga ko'ra o'simliklarni o'rganishga bag'ishlangan daslarni predmetli dars sifatida tuzish maqsadga muvofiqdir, bunda tarqatma material qilib gerbariylardan, landshaft to'g'risida tasavvur shakllantirish uchun esa suratlardan foydalaniladi.

Hayvonot dunyosining ta'rifi bolalarga tanish bo'lgan yovvoyi hamda uy hayvonlarining guruhleri bo'yicha sistematik tasvirlardan iborat bo'lishi kerak. Bunda hayvonning tashqi ko'rinishi, nima bilan oziqlanishi, ovqatni qanday topishi, ba'zi xulq-atvori, odam uchun foydalimi yoki zararlimi ekanligi ko'rsatiladi.

O'lkamiz biror qismining tabiiy xususiyatlarini o'rgana turib, o'quvchilar uning uchun xarakterli bo'lgan qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishining turlari to'g'risida tasavvur olishlari kerak.

Mamlakatimiz umumta'lim maktablari uchun tuzilgan dastur tabiiy zonalarni o'rganishni shimoldan janubga qarab emas, balki janubdan shimolga tomon olib borishni tavsiya qiladi. Bu o'qitishning muhim tamoyili—"Yaqindan uzoqqa borish" tamoyili bilan taqozo qilinadi. O'z o'lkasini o'rgana turib, avval o'zining tabiiy, ya'ni eng janubiy zona to'g'risidagi bilimlarni umumlashtiriladi, keyin esa bolalarni o'z atrofidan chetdagi boshqa tabiiy zonalarga olib boriladi. Daftarlarda har bir tabiiy zonani xarakterlovchi yozuvlar qilish, bezak tanlash yoki rasm chizish, o'simlik va hayvonlarning nomlarini yozish va shu kabilarni qilish kerak bo'ladi.

"Vatanimiz bo'ylab sayohat" mavzusini o'rgana turib, o'qituvchi tabiat muhofazasi bo'yicha qonuniy hujjatlar, ularni har biri fuqaro tomonidan bajarilishi zarurligi to'g'risida gapirib berishi kerak. Mavzuda alohida e'tibor inson tomonidan tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishiga qaratiladi. Tabiat muhofazasiga oid masalalar tabiatshunoslikning deyarli barcha bo'limlariga daxllidir. Mavzuning asosiy masalasi - tabiat muhofazasi to'g'risidagi ilgari darslarda bayon qilingan ayrim ma'lumotlarni bildirish, tabiat muhofazasi bo'yicha qanday tadbirlar o'tkazilayotganligini ko'rsatishdir.

Tabiat muhofazasining ma'nosi va ahamiyatini o'quvchilarga ocha borib, o'qituvchi bu mavzuning katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini e'tiborda tutishi kerak. Tabiat faqat jamiyatning moddiy hayoti uchun boylik olish manbaigina bo'lib qolmasdan, balki xalq ma'naviy boyligining asosi hamdir.

O'qituvchi tabiat muhofazasi va tabiiy boyliklardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish to'g'risida qanday g'amxo'rlik qilayotganligini gapirib berishi, o'quvchilarni O'zbekiston Konstitutsiyasida aks ettirilgan tabiat muhofazasi to'g'risidagi qonunlar bilan, O'zbekiston tabiatni muhofaza qilish jamiyatining Ustavi bilan tanishtirib borishi kerak. Bu kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ma'naviy tarbiyasi sistemasida katta ahamiyatga ega. Tabiat muhofazasi to'g'risida g'amxo'rlik bolalarda kompleks tarbiyaning muhim qismi sifatida, vatanparvarlik hissini shakllantirishda, inson va tabiat o'rtasida oqilona o'zaro munosabat o'rnatishda g'oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy faoliyat bolalarda tabiat boyliklarini himoya qilish hamda ko'paytirishga intilishni rivojlantiradi. Shunga ko'ra ularni qushlar uchun oziqa tayyorlashda qatnashishga, kech kuz, qish va erta bahorda qushlarni boqishga, gul manzarali o'simliklar urug'larini yig'ishga, ularni aholi

o'rtasida tarqatishga, ko'kalamzorlarni parvarish qilishga, tuproqni yemirilishdan saqlovchi o'simliklarni o'stirishga jalb qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: "o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G'ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.
6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. " Barkamol fayz media" nashriyoti. 2018.

2- 1-SINF "ATROFIMIZDAGI OLAM" DARSLIUGI BILAN TANISHISH VA TAHLIL

RE J A :

- 1.1-sinf "Atrofimizdagi olam" darsligi tahlili.
2. I bob. Atrofimizdagi olam tahlili
3. II bob. Atrofimizdagi tabiat tahlili
- : 4. III bob. Bizning o'lka tahlili.

Tayanch iboralar: "atrofimizdagi olam", "o'lkashunoslik", "bilimlarni mustahkamlash", "mantiqiy tafakkur", "darslik bilan ishlash metodikasi".

1-sinf "Atrofimizdagi olam" darsligi bilan tanishish va tahlil. Hozirgi ishlab chiqarish, texnika va tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik, geosiyosiy sharoit tadrijiy ravishda o'zgarib borayotgan vaqtda maktablarda atrofimizdagi olam fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitish zamon talabidir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Atrofimizdagi olam fanidan ta'lim berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish va tabiatdan foydalanish sohalari, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Atrofimizdagi olam ta'limida o'rganiladigan tabiiy, ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o'quvchilarga tushunarli holda umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e'tiborni

o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o'quvchilarning bilim olish va o'quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga e'tibor qaratishdan iborat.

Atrofimizdagi olam fanini o'qitishning asosiy maqsadi: o'quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tushunchalarni shakllantirish, tahliliy fikrlashga o'rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'limda atrofimizdagi olam fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

- joy nomlari va atamalarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;
- hozirgi zamon jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining mohiyati va xususiyatlari to'g'risida tasavvur hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan tejamkorlik munosabatini o'stirish;
- o'quvchilarni Vatanga mahabbat, milliy iftihar, fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash.

I sinfda Atrofimizdagi olam o'quv fanini o'rganish davomida atrofimizdagi olam va uning xilma-xilligi, tabiat, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardagi kishilar hayoti, mehnati haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi.

Shuningdek, o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida mavzularga ajratilgan soat hajmini 15% gacha o'zgartirish va metodik kengash yig'lishida kelishilgan holda maktab pedagogika kengashida muhokama qilinib, tasdiqlanishi maqsadga muvofiqdir. 3

Mazkur dasturda tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxatidan fan o'qituvchilari ijodiy yondoshgan holda mavzularni kengaytirib o'qitishda foydalanishlari mumkin. O'quv dasturining boshida har bir sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar keltirilgan.

Bu o'z o'rnida o'quv yili boshlanishida pedagoglarning harakat strategiyasini belgilab beradi. Mazkur o'quv dasturi 2019/2020 o'quv yilida I sinfda amaliyotga joriy etiladi.

1 - SINIF

ATROFIMIZDAGI OLAM (33 soat)

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

tabiiy hodisa va jarayonlarni, tun va kun, yil fasllari almashinishi kuzatadi;
kuz faslida dala va bog'larda hosillarning yig'ib-terib olinishi, kishilar mehnatini biladi:

hayvonot olami, uy hayvonlari va parrandalarning fasllarga moslashishini biladi;

o'zi yashaydigan shahar, qishloq, mahallasi nomini va maktabi joylashgan ko'chalarning nomlanishini to'g'ri aytadi;

maktab, sinfxonalari, kutubxona, maktab bog'i, mahallasi, ko'chasini toza saqlashda o'z hissasini qo'shadi.

I BOB. ATROFIMIZDAGI OLAM (5 soat)

Kirish. Atrofimizdagi olam. Atrofimizdagi olam va uning xilma-xilligi haqida tushuncha berish. Tevarak-atrof bilan tanishish.

Bizning maktab. Maktab binosi va hovlisi, sinfxonalari, kutubxona, oshxona, sport zali va boshqalar haqida ma'lumot berish.

Bizning sinf. Sinf xonasi. Partada o'tirish qoidasi. Xonani toza va tartibli saqlash, o'z vaqtida shamollatish.

Bizning mahalla. Men yashaydigan manzil. Mahallamiz manzarasi: ko'chalari, uylari, do'kon, bog'cha, maktab, aloqa bo'limi. Ko'chada yurish qoidalari. Uydan maktabgacha yo'l.

Ko'chada yurish qoidalari. Piyodalar uchun yo'lak, chorraha, yo'lning o'tish joyi, svetofor. Jamoat transportida yurish qoidalari.

II BOB. ATROFIMIZDAGI TABIAT

(16 soat)

Quyosh. Oy. Quyosh. Oy. Quyosh yorug'ligi va issiqligining atrofimizdagi tabiat va inson uchun ahamiyati.

Yil fasllari. Yil fasllari: kuz, qish, bahor, yoz. Yil fasllarining o'ziga xosligi. Ob-havo. Ob-havoning yil fasllarida o'zgarishi.

Kuzda o'simliklar hayoti. Kuzda o'simliklar hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar. O'simlik mevalarining pishishi, barglarining sarg'ayishi va to'kilishi.

Kuzgi mehnat. Kuz faslida kishilarning mehnati. Dala va bog'larda hosillarning yig'ib-terib olinishi.

O'simliklar dunyosi. O'simliklar dunyosi haqida tushuncha. Madaniy va yovvoyi o'simliklar. O'lkamizda o'sadigan o'simliklar, ularning turli fasllarda o'zgarishi.

O'simlik qismlari va ularning o'sishi. O'simliklarning asosiy qismlari. O'simliklar tanasi, ildizi, shoxi, guli, mevasi. O'simliklarning o'sishi.

O'simliklarning xilma-xilligi. O'simliklarning tashqi tuzilishiga qarab o't o'simliklar, butalar, daraxtlarni ko'rinishidan ajrata olish. Xona o'simliklari.

Dalalarda yetishtiriladigan ekinlar. Dalalarimizda yetishtiriladigan ekinlar, ekin turlari, mevalar. Sabzavot va mevalarning vitaminlarga boyligi.

Xona o'simliklari. Xona o'simliklarining o'sish sharoiti. Xona o'simliklariga qarashning eng oddiy qoidalari. Xonada o'stiriladigan gullar.

Uy hayvonlari. Uy hayvonlari: qoramol, qo'y, echki, ot, it, mushuk. Ularning insonlar uchun ahamiyati. Uy hayvonlarini parvarish qilishning oddiy qoidalari va xavfsizlikka rioya qilish.

Parrandalar. Parrandalar: tovuq, kurka, g'oz, o'rdak. Ularning insonlar uchun ahamiyati, parrandalarga g'amxo'r bo'lish, ularni parvarishlash, ehtiyotkorlik va xavfsizlikka rioya qilish.

Yovvoyi hayvonlar. Yovvoyi hayvonlar: bo'ri, tulki, ayiq, yo'lbars, sher, ilon, baliq, baqa va boshqalar. Hayvonlarning turli fasllardagi hayoti.

Qushlar. Qushlar: qaldirg'och, chumchuq, mayna, qarg'a, bulbul, sa'va, kabutar, musicha, qushlarni qishda ovqatlantirishning ahamiyati.

Hasharotlar. Hasharotlar: kapalak, ninachi, pashsha, chivin, chigirtka, xonqizi, ari, asalari, o'rgimchak. Foydali hasharotlar, hasharotlarning keltiradigan zarari. Qish fasli. Qishda havo haroratining pasayishi, qor yog'ishi. Suvning muzlash hodisasi. Muzlagan suv havzalari ustida yurishning xavfliligi.

III BOB. BIZNING O'LKA

(12 soat)

O'zbekiston tabiati. Bizning o'lka – O'zbekiston. O'lkamiz tabiati: tog'lar, qiradirlar, tekisliklar, daryolar, ko'llar, ariqlar.

Suv. Suvning tirik mavjudot uchun ahamiyati. Suvdan oqilona foydalanish va suvni tejash, suv havzalarini ifloslantirmaslik.

Salom bahor. Bahorda tabiat manzarasi. O'lkamizda bahorning o'ziga xos xususiyatlari. Kishilarning bahordagi mehnati. Dalalarga ekinlarning eqilishi.

Bahorgi tengkunlik. Kun va tun. Tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar.

Men yashaydigan qishloq (shahar) tabiati. O'zi yashaydigan joy tabiati, tog'lar, qiradirlar, tekisliklar, daryolar, ko'llar, ariqlar, ichimlik suvlari, suvdan oqilona foydalanish, muhofaza qilish.

Bizning bog'. Bog'dagi daraxtlarni parvarish qilish. Ularning gullashi va meva tugishi.

Biz va tabiat. Tabiat qo'yniga, maktab bog'iga, maktab yaqinidagi istirohat bog'iga va h.k. sayohat qilish.

Tabiatni asrash. Suvni, o'simlik va hayvonlarni, tuproqlarni muhofaza qilish.

Salom yoz. Yozda tabiat manzarasi. Yoz faslida tabiatda bo'ladigan hodisa va jarayonlar, ularni kuzatish va tushuntirib berish.

Yozgi mehnat. Yozda tabiatda bo'ladigan hodisa va jarayonlar. Kishilarning yozdagi mehnatlari.

Yozgi ta'tilda tabiat qo'ynida dam olish. Yozda ta'tilni maroqli o'tkazish. O'zi yashaydigan joy tabiatini muhofaza qilish haqida og'zaki hikoyalar tuzish, o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish, hayot xavfsizligi qoidalariga amal qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: "o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G'ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.
6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. " Barkamol fayz media" nashiriyoti. 2018.

3- 2-SINF "ATROFIMIZDAGI OLAM" DARSLIUGI BILAN TANISHISH VA TAHLIL

RE J A :

1. 2-sinf "Atrofimizdagi olam" darsligi bilan tanishish va tahlil.
2. I bob. Atrofimizdagi olamni o'rganamiz.
3. II bob. Ona zaminimiz – yer.
4. III bob. O'lkamizda kuz.
5. 5-bob. O'lkamizda bahor.
6. 5-bob.Qish.

Tayanch iboralar: "atrofimizdagi olam", "o'lkashunoslik", "bilimlarni mustahkamlash", " mantiqiy tafakkur", "darslik bilan ishlash metodikasi".

2-sinf "Atrofimizdagi olam" darsligi bilan tanishish va tahlil. Tabiiyot va geografiya fanini hozirgi zamon talablari asosida o'qitishda insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi, ularning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o'zni, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'lashga olib keladigan geografiyaning tadqiqot yutuqlarini ko'rsatish.

Tabiiyot va geografiya ta'limida o'rganiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o'quvchilarga tushunarli holda umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e'tiborni o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o'quvchilarning bilim olish va o'quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga e'tibor qaratishdan iborat.

- umumiy o'rta ta'limda tabiiyot va geografiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'quvchilarda tayanch hamda tabiiyot va geografiya o'quv faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish;

- geografik obyektlar, jarayon va hodisalar, Yer yuzining tabiiy manzarasi, aholisi va uning xo'jaligi, jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi, tabiatdan oqilona foydalanish, Yer yuzidagi global muammolar haqida fikr-mulohaza yuritishga o'rgatish, tabiatni qadrlash va muhofaza qilish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash mahoratini shakllantirish;

- o'quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borib, geografik bilimlarni hayotga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'limda tabiiyot va geografiya fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

- o'quvchilarda atrofimizdagi olamga, o'z Vataniga muhabbat hissini uyg'otish, tabiatni asrash va muhofaza qilish, nazariy bilimlarini amalda qo'llash malakalarini shakllantirish, tabiatni kuzatish, tahlil qilish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish hamda ijtimoiy hayot va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi, hozirgi zamon talablari, ta'lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan tafakkur va bilimlarni egallashi, shu bilan birga ulardan kundalik hayotlarida foydalana olishga o'rgatishdan iborat.

Tabiiyot va geografiya o'quv fanini o'rganishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilgan matematika, fizika, botanika, kimyo, iqtisodiy bilim asoslari fanlaridan olingan bilimlar umumlashtirilib, geografiyani o'rganishning birinchi davri 1- va 2-sinflarda Yer, Quyosh, ob-havo, fasllar, Yer yuzasining tuzilishi, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardagi kishilar hayoti, mehnati haqida, 3-4 sinflarda tabiat, tabiat hodisalari, mamlakatimiz geografiyasi haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi. Geografiyani o'rganishning ikkinchi davri – umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-9-sinflari bo'lib, geografiya kurslarida o'rganilgan o'quv materiallarining akademik litsey va kasb-hunar kollejlari geografiya ta'limida takrorlanmasligi e'tiborga olingan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Tabiiyot va geografiya fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar shakllantirilib boriladi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

mustaqil fikrini og‘zaki va yozma tarzda bayon eta olish, darslik, o‘quv atlas ma’lumotlardan samarali foydalana olish, guruhlar bilan ishlaganda muomala madaniyatiga amal qilish.

A1+

manbalardan foydalanib, mavzu bo‘yicha yozma matn tuza olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

kompyuter, televizor va boshqa manbalardan mavzuga doir zarur ma’lumotlarni izlab topish, ulardan samarali foydalana olish va mediamadaniyatga rioya qilish.

A1+

media vositalardan foydalanib, mavzuga doir didaktik topshiriqlarni bajara oish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

fan to‘garagida, uyda rasmlı kitoblar, jurnallardan foydalanib, mustaqil ishlay olish, sportning yoshiga mos turi bilan shug‘ullana olish, o‘zini tuta olish, o‘zining xatosini tushuna olish.

A1+

manbalardan foydalanib, tabiat hodisalariga doir referat tayyorlay olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

farzandlik va o‘quvchilik burchini biladi, unga rioya qilish, maktabda, sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrab-avaylash.

A1+

tabiiy hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his qilish, sinfda, maktabda, oilada, mahallada o‘tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1

o‘zi yashaydigan joyning maftunkor tabiati, tarixiy obidalarini, dam olish maskanlarini asrab avaylash va ularning qadriga yetish.

A1+

o‘zi yashaydigan joyning maftunkor tabiati, tarixiy obidalariga doir albomlar tayyorlay olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

xarita, globus bilan ishlashda hisoblashning qulay usullarini qo‘llay olish, aniq hisobkitoblarga asoslangan holda kundalik faoliyatda zarur bo‘lgan dastlabki

rejalarni tuza olish, uyda, maktabda suvni isrof qilmaslik va uni tejab ishlatishga amal qilish.

A1+

uyda, maktabda suvni isrof qilmaslik va uni tejab ishlatishga doir amaliy topshiriqlarni bajara olish. Tabiiyot va geografiya fanini mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi.

Geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi.

Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi.

Ushbu fanga oid umumiy kompetensiyalar o'quv dasturlarining 1-4-sinflarida yil oxirida keltirildi. O'quv dasturida nazorat ishlari ham berildi. Mazkur nazorat ishlari mavzular kesimida joylashtirilgan. Me'yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi:

I. TK-tayanch kompetensiyalar

1. TK1-kommunikativ kompetensiya;
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;
3. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi;
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
5. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya;
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK1-tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi;
2. FK2- geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi;
3. FK3-globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi;
4. FK4-tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi.

2-SINF

ATROFIMIZDAGI OLAM

(34 soat, haftasiga 1 soat, A1+: haftasiga 2 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

mavzuni ravon gapirib berish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish.

A1+

tabiat hodisalariga oid tayanch soʻz va atamalarni nomlanishini maʼnosini aytib bera olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**A1**

televizor, radio va boshqa manbalardan tabiat va undagi hodisalarga oid zarur maʼlumotlardan foydalana olish, oʻziga zarur maʼlumotlarni oʻzlashtira olish.

A1+

tabiat va undagi hodisalarga doir kichik albomlar tayyorlash.

Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**A1**

kun tartibiga amal qilish, sportning yoshiga mos turi bilan shugʻullanish; fan toʻgaraklariga qatnashish, kitoblar, jurnallar yordamida mustaqil oʻrganish orqali bilimni oshirib borish.

A1+

oʻzining oʻquvchilik burchi va vazifalarini bilish, unga rioya qilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**A1**

oʻzining fuqarolik burch va vazifalarini bilish, unga rioya qilish, maktabda, koʻchada, uyda oʻzidan katta va kichiklarga yordam berish.

A1+

tabiatni muhofaza qilishga oid tadbirlarda ishtirok etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:**A1**

oʻz oʻlkasi, uyi, mahallasi, maktabi, yashash joyini qadrlash; doʻstlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon boʻlish.

A1+

orasta kiyinish, sogʻlom turmush tarziga amal qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

maishiy texnika jihozlaridan foydalana olish, tejamkorlikka, ehtiyotkorlik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

A1+

maktabda, uyda suv, elektr manbalaridan foydalanishda tejamkor boʻlish.

1-BOB. ATROFIMIZDAGI OLAMNI O'RGANAMIZ

(2 soat, A1+: 4 soat)

1-mavzu: Atrofimizdagi olam. (1 soat, A1+: 2 soat)

Atrofimizdagi olamni o'rganish va uni kuzatish. Tabiatdagi jism va moddalar. Moddalarning uch holati: qattiq, suyuq, gaz.

2-mavzu: Ob-havo, uning belgilari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Havoning ochiq yoki bulutligi, yog'inlar. Termometr. Termometr yordamida havo haroratini o'lchash. Ob-havoni kundalik kuzatish.

2-BOB. ONA ZAMINIMIZ – YER

(7 soat, A1+: 14 soat)

3-mavzu: Yer – sayyora. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yer. Yer sayyorasining tuzilishi. Globus. Globus - Yer sharining kichraytirilgan shakli.

4-mavzu: Yerning harakatlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yerning Quyosh atrofida aylanishi. Oy - Yerning tabiiy yo'ldoshi. Oyning Yer atrofida aylanishi.

5-mavzu: Vaqt o'lchov birliklari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Vaqt o'lchov birliklari: yil, oy, hafta, sutka, soat, minut, sekund.

6-mavzu: Yer yuzasining tuzilishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yer yuzidagi tog', tekislik va suvliklar.

7-mavzu: O'lkamizdagi tog' va tekisliklar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tog' va tekisliklarning o'ziga xos tabiati.

8- mavzu: Daryo, ko'l, kanal va ariq suvlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Daryo, ko'l, kanal va ariq suvlari. Suv bor joyda hayot bor.

9-mavzu: Suv havzalarini muhofaza qilish. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Suvdan oqilona foydalanish, tejash va asrash. Suv havzalarini muhofaza qilish.

3-BOB. O'LKAMIZDA KUZ

(9 soat, A1+: 18 soat)

10-mavzu: Yil fasllari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yil fasllari. Fasllarning almashishi. Turli fasllarda quyoshning ko'rinma holatlari.

11-mavzu: Kuz – hosil yig'iladigan fasl.

Paxta – Vatanimiz boyligi. Paxta yig'im-terimi. Kuz noz-ne'matlari. **(1 soat, A1+: 2 soat)**

12-mavzu: O'zbekiston bog'lari va dalalarida yetishtiriladigan meva-sabzavotlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

O'zbekiston bog'larida, dalalarida yetishtiriladigan meva-sabzavotlar. Hosilni yig'ishtirib olish.

13-mavzu: O‘simliklarning qishga tayyorlanishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘simliklarda qish fasli yaqinlashishi bilan sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar. Xazonrezgilik.

14-mavzu: Barglardan gerbariy tayyorlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

To‘kilgan barglarni yoqib yubormaslik. Uning zararli tomonlari. Atrof-muhitni ifloslantirmaslik.

15-mavzu: Kuzda hayvonlar va hasharotlar hayoti. (1 soat, A1+: 2 soat)

Kuzda hayvonlar va hasharotlar hayotidagi o‘zgarishlar. Foydali va zararli hasharotlar. Chumolilarning hayoti.

16-mavzu: O‘lkamizda uchraydigan qushlar. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘lkamizda uchraydigan qushlar va ularning tabiiy sharoitga moslashuvchanligi. Hasharotxo‘r, donxo‘r, yirtqich (go‘shxo‘r), hammaxo‘r qushlar. Qushlarning boshqa o‘lkalarga uchib ketishi va boshqa o‘lkalardan uchib kelishi.

17-mavzu: Ijtimoiy foydali mehnat. (1 soat, A1+: 2 soat)

Maktab hovlisi va sinfxonasini ozoda tutish. Maktab yer uchastkasidagi ekin va daraxtlarni parvarish qilishda ishtirok etish.

18-mavzu: Kasblar olami. (1 soat, A1+: 2 soat)

Ishlab chiqarish jarayoni haqida umumiy tushuncha, misollar (masalan, bug‘doy donidan tayyor nongacha amalga oshiriladigan jarayonlar).

4-BOB. QISH

(3 soat, A1+: 6 soat)

19-mavzu: Kumush qish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Qishdagi ob-havo. Qish manzarasi.

20-mavzu: Kishilarning qishdagi mehnati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Issiq xonalarda ko‘chat tayyorlash, meva yetishtirish. Dalalarni bahorgi ekish mavsumiga tayyorlash.

21-mavzu: Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarning qishdagi hayoti (1 soat, A1+: 2 soat)

Biz va hayvonot olami. Fermalarda chorva mollarini parvarish qilish. Yovvoyi hayvonlarning qishdagi hayoti. O‘lkamizda qishlaydigan qushlar.

5-BOB. O‘LKAMIZDA BAHOR

(12 soat, A1+: 24 soat)

22-mavzu: O‘lkamizda bahor (1 soat, A1+: 2 soat)

Bahor fasli. Navro‘z – yangi kun. Sumalak – Navro‘z taomi. Navro‘z sayllari.

23-mavzu: Bahorda o‘simliklar hayoti. (1 soat, A1+: 2 soat)

Erta bahorda ochiladigan gullar. Daraxtlarning kurtaklashi va gullashi.

24-mavzu: O'simliklarni ko'paytirish. (1 soat, A1+: 2 soat)

O'simliklarning urug'dan, ildiz mevasi (piyozi)dan, novdasidan ko'payishi.

25-mavzu: Bahorda kishilar mehnati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bahorda kishilarning o'ziga xos mehnatlari. Dalalarda ekin maydonlarini tayyorlash va urug'larni ekish.

26-mavzu: Ko'chatlarni o'tqazish va ularni parvarish qilish. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bog'larda mevali daraxt ko'chatlarini, gullarni o'tqazish va ularni parvarish qilish.

27-mavzu: Bahorda hasharotlar hayoti. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bahorda hasharotlarning uyg'onishi va hayot kechirishi.

28-mavzu: O'lkamiz qushlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bahorda o'lkamizga qushlarning qaytib kelishi. Qushlarning ahamiyati, ularni muhofaza qilish.

29-mavzu: Uy hayvonlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Uy hayvonlari va ularning ahamiyati.

30-mavzu: Yovvoyi hayvonlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yovvoyi hayvonlar va ularning tabiatdagi o'rni.

31-mavzu: Tabiat va inson. (1 soat, A1+: 2 soat)

Insonning tabiatdan foydalanishi va unga ta'siri. Tabiatni muhofaza qilish.

32-mavzu: Shaharlar va qishloqlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Shahar va qishloqlar, ular orasidagi farq. Bizning uyimiz, uy manzilini yozish qoidalari.

33-mavzu: O'lkamizda yoz. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yoz – o'tadi soz. Yozda tabiatga sayohat. Tabiat qo'ynida o'zini tutish qoidalari.

34-mavzu: O'quv yili davomida o'tilganlarni takrorlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Mavzularni o'rganish uchun- 33 soat (A1+: 66 soat)

Takrorlash uchun – 1 soat (A1+: 2 soat)

O'quvchilarda shakllangan fanga oid umumiy kompetensiyalar elementlari:

Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:

A1

tabiatda bo'ladigan jarayonlarni, haroratning tun va kunduzi farq qilishini kuzatadi va ayta oladi; tog' va tekisliklarning tabiati o'ziga xosligini, xazonrezgilik jarayonini kuzatadi va gerbariy tayyorlay oladi; o'lkamizda uchraydigan hayvonlar va hasharotlar hayoti, qushlarning kuzdagi hayotini kuzatadi; qish faslidagi ob-havo, kishilarning qishdagi mehnati, issiqxonalarda ko'chatlarni parvarishlash va yetishtirish haqidagi ma'lumotlarni tushunadi va aytib bera oladi. Bahorgi mehnat, dalalarda ekin ekish ishlarini kuzatadi va tushunadi.

A1+

kuzgi xazonrezgilik davrida atrof-mufitni toza saqlashda, bahorda maktabga, mahallasiga, o'z hovlisiga ko'chat va gullarni ekish ishlarini bajarish.

Geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi:**A1**

Yer yuzidagi va o'zi yashaydigan joy, undagi tog'lar, tekisliklar hamda suv havzalarini nomlarini to'g'ri qo'llay oladi.

A1+

o'zi yashaydigan joyning (shahar, qishloq) nomlarini ayta oladi va to'g'ri yoza oladi.

Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:**A1**

O'zbekistonning tabiiy va siyosiy ma'muriy xaritasidan o'zi yashaydigan vatanni, hududni aniqlab, ko'rsata oladi.

A1+

O'zbekistonning tabiiy va siyosiy ma'muriy xaritasidan o'z hududiga chegaradosh davlatlarni topib ko'rsata oladi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi:**A1**

o'zi yashaydigan joyda suv havzalari, o'simlik, hayvonat olamini muhofaza qilishga doir o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etadi, qushlarga g'amxo'rlik qiladi.

A1+

foydali hasharotlarni asrash va ko'paytirish, zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashish tadbirlarida ishtirok eta oladi.

Hozirgi ishlab chiqarish, texnika va tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik, geosiyosiy sharoit tadrijiy ravishda o'zgarib borayotgan vaqtda maktablarda atrofimizdagi olam fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitish zamon talabidir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Atrofimizdagi olam fanidan ta'lim berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish va tabiatdan foydalanish sohalari, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Atrofimizdagi olam ta'limida o'rganiladigan tabiiy, ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o'quvchilarga tushunarli holda umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e'tiborni o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o'quvchilarning bilim olish va o'quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga e'tibor qaratishdan iborat.

Atrofimizdagi olam fanini o‘qitishning asosiy maqsadi: o‘quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tushunchalarni shakllantirish, tahliliy fikrlashga o‘rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’limda atrofimizdagi olam fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

- joy nomlari va atamalarni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- hozirgi zamon jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining mohiyati va xususiyatlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan tejamkorlik munosabatini o‘stirish;

o‘quvchilarni Vatanga mahabbat, milliy iftihar, fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalash.

I sinfda Atrofimizdagi olam o‘quv fanini o‘rganish davomida atrofimizdagi olam va uning xilma-xilligi, tabiat, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardagi kishilar hayoti, mehnati haqida boshlang‘ich ma’lumotlar beriladi.

Shuningdek, o‘quvchilar bilimida aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida mavzularga ajratilgan soat hajmini 15% gacha o‘zgartirish va metodik kengash yig‘ilishida kelishilgan holda maktab pedagogika kengashida muhokama qilinib, tasdiqlanishi maqsadga muvofiqdir. 3

Mazkur dasturda tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxatidan fan o‘qituvchilari ijodiy yondoshgan holda mavzularni kengaytirib o‘qitishda foydalanishlari mumkin. O‘quv dasturining boshida har bir sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar keltirilgan.

Bu o‘z o‘rnida o‘quv yili boshlanishida pedagoglarning harakat strategiyasini belgilab beradi. Mazkur o‘quv dasturi 2019/2020 o‘quv yilida I sinfda amaliyotga joriy etiladi.

Yozgi ta’tilda tabiat qo‘ynida dam olish. Yozda ta’tilni maroqli o‘tkazish. O‘zi yashaydigan joy tabiatini muhofaza qilish haqida og‘zaki hikoyalar tuzish, o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish, hayot xavfsizligi qoidalariga amal qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.T., 2005.

2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: “o‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.

3. G‘ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: “Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2016.

4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho‘lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.

5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.

6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o’qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashiriyoti. 2018.

4- 3-SINF “TABIATSHUNOSLIK” DARSLIUGI BILAN TANISHISH VA TAHLIL RE J A :

1. 3- sinf “Tabiatshunoslik” darsligi bilan tanishish va tahlil.
2. I bob. Tabiatda suv va havo.
3. II bob. Yer osti boyliklari.
4. III bob. Tuproq.
5. IV bob. O‘simliklar dunyosi.
- 6.V bob. Hayvonot dunyosi.
- 7.VI bob. Odamning tuzilishi.
- 8.VII bob. Tabiatni muhofaza qilish.

Tayanch iboralar: “Tabiatshunoslik”, “o’lkashunoslik”, “bilimlarni mustahkamlash”, “mantiqiy tafakkur”, “darslik bilan ishlash metodikasi”.

3- sinf “Tabiatshunoslik” darsligi bilan tanishish va tahlil. Tabiatshunoslik fanini hozirgi zamon talablari asosida o’qitishda insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi, ularning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o’rni, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog’lashga olib keladigan fanning tadqiqot yutuqlarini ko’rsatish.

Tabiatshunoslik fanida o’rganiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o’quvchilarga tushunarli holda umumiy o’rta ta’lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e’tiborni o’quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o’quvchilarning bilim olish va o’quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o’zlashtirish imkoniyatiga e’tibor qaratishdan iborat.

Tabiatshunoslik fanini o’qitishning asosiy maqsadi

o’quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolar haqida tushunchalarni shakllantirish, tahliliy fikrlashga o’rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo’llash ko’nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Tabiatshunoslik fanini o’qitishning asosiy vazifalari-

o’quvchilarda tabiatga, o’z Vataniga muhabbat hissini uyg’otish, tabiatni asrash va muhofaza qilish, nazariy bilimlarini amalda qo’llash malakalarini shakllantirish, tabiatni kuzatish, tahlil qilish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib

toptirish hamda ijtimoiy hayot va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi, hozirgi zamon talablari, ta'lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan tafakkur va bilimlarni egallashi, shu bilan birga ulardan kundalik hayotlarida foydalana olishga o'rgatishdan iborat.

Tabiatshunoslik fanini o'rganishning birinchi davri I va II sinflarda

Atrofimizdagi olam fanida Yer, Quyosh, ob-havo, fasllar, Yer yuzasining tuzilishi, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardagi kishilar hayoti, mehnati haqida, III-IV sinflarda tabiat, tabiat hodisalari, mamlakatimiz geografiyasi haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi.

Zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim – tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan. Tabiatshunoslik fanini o'qitishda ham fanlararo integratsiyaga alohida e'tibor qaratish zarur. O'qish, matematika, texnologiya va tasviriy san'at fanlari bilan o'zaro bog'liklikda o'qitish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda o'qituvchi tomonidan dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi dars samaradorligining oshishiga va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu o'quv dasturida boblar kesimida mavzularga ajratilgan umumiy soatlar hajmi keltirilgan bo'lib, ularning taqsimlanishi o'qituvchi tomonidan ijodiy yondoshgan holda amalga oshiriladi. Jumladan, taqvim mavzuiy rejani tuzishda o'quv dasturida boblarga ajratilgan umumiy soat hajmidan chiqmagan holda taqsimlanishi zarur.

Shuningdek, o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida mavzularga ajratilgan soat hajmini 15% gacha o'zgartirish va metodik kengash yig'ilishida kelishilgan holda maktab pedagogika kengashida muhokama qilinib, tasdiqlanishi maqsadga muvofiqdir.

O'quv dasturining boshida har bir sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Bu o'z o'rnida o'quv yili boshlanishida pedagoglarning harakat strategiyasini belgilab beradi.

Mazkur dasturda tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxatidan fan o'qituvchilari ijodiy yondoshgan holda mavzularni kengaytirib o'qitishda foydalanishlari mumkin.

Mazkur o'quv dasturi 2019/2020 o'quv yilida III sinflarda amaliyotga joriy etiladi.

3-SINF
TABIATSHUNOSLIK
(34 soat)

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

jonli va jonsiz tabiat, atrofimizdagi tabiatning tarkibiy qismlari va tabiat hodisalari mohiyatini biladi;

suvning tirik organizmlar va insonlar uchun ahamiyatini biladi;

ob-havodagi o'zgarishlarni kuzatadi va uni mahalliy belgilarga qarab aniqlaydi;

yog'in turlarini ajratadi;

foydali qazilmalarlarini, ularning ahamiyatini biladi;

foydali qazilmalardan oqilona foydalanish va ularni tejashni o'rganadi;

tuproqning inson uchun ahamiyatini biladi;

madaniy o'simliklarni parvarish qilish va ekin maydonlarini begona o'tlardan tozalashni biladi;

"Qizil kitob"ga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar, ularni asrash bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'ladi;

suv va gazni tejash, isrof qilmasdan ishlatadi.

KIRISH
(1 soat)

Tabiatshunoslik nimani o'rganadi? Tabiatning tarkibiy qismlari. Jonli va jonsiz tabiat. Tabiat hodisalari.

I BOB. TABIATDA SUV VA HAVO
(7 soat)

Yer usti va yer osti suvlari. Okean va dengizlar. Daryo va ko'llar. Muzliklar. Yer osti suvlari.

Suvning xususiyatlari. Suvning ahamiyati. Suvning xususiyatlari. Suvning uch holati.

Suvni muhofaza qilish va tejash. Oqar suvlar. Toza va chuchuk suvlar. Suvlarning ifloslanishi. Ichimlik suvlari. Suvlarni tejash va muhofaza qilish.

Tabiatda havo. Havo nima? Havoning ahamiyati. Havo harorati.

Ob-havoning belgilari. Ob-havo. Ob-havoning mahalliy belgilari. Shamolning paydo bo'lishi.

Yog'inlar. Yog'inlar, ularning turlari. Tabiatda suvning aylanishi.

II BOB. YER OSTI BOYLIKLARI
(5 soat)

Foydali qazilmalar qayerdan olinadi? Foydali qazilma haqida tushuncha. Foydali qazilmalar qanday hosil bo'ladi? Ular qayerlardan qazib olinadi?

Yoqilg'i sifatida foydalaniladigan qazilmalar. Ko'mir, neft, tabiiy gaz, ulardan olinadigan mahsulotlar.

Qora va rangli metallar. Qora metallar. Temirtosh rudalari: magnitli, qo'ng'ir, qizil temirtosh. Ulardan temir eritib olish. Rangli metallar: oltin, mis, aluminiy. Ulardan yasalgan buyumlar.

Qurilishda foydalaniladigan qazilma boyliklar. Marmar. Granit. Ohaktosh. Qum va gil. Ularning ishlatilishi.

Foydali qazilmalardan oqilona foydalanish. Foydali qazilmalarni nima uchun tejash kerak? Foydali qazilmalardan oqilona foydalanish va ularni tejash.

III BOB. TUPROQ

(2 soat)

Tuproq, uning tuzilishi. Tuproqning tarkibi va tuzilishi. Undagi jonzorlar. Tabiatdagi qattiq jismlarning parchalanishi, tuproqning hosil bo'lishi. Tuproqning unumdorligi va ahamiyati.

Tuproq unumdorligi. Tuproqning inson uchun ahamiyati. Tuproq-Ona zamin. Uning inson uchun ahamiyati, tuproqni muhofaza qilish.

IV BOB. O'SIMLIKLAR DUNYOSI

(9 soat)

Tabiiy o'simliklar. O'tlar, butalar, daraxtlar. O'simliklarning nafas olishi va oziqlanishi, ularning rivojlanishi.

Madaniy o'simliklar. G'o'za, bug'doy, sholi va makkajo'xori, ularni parvarish qilish va hosilini yig'ish. Foydali va zararli o'simliklar.

Kartoshka. Sabzavotlar. Kartoshka. Sabzavotlar: piyoz, sabzi, karam va pomidor. Qulupnay. Ularni parvarish qilish va hosilini yig'ish.

Begona o'simliklar. Begona o'simliklar haqida tushuncha. Zarpechak, g'umay, machin, salomalaykum. Ekin maydonlarni begona o'tlardan tozalash.

Poliz ekinlari. Poliz ekinlari: tarvuz, qovun, pomidor, bodring va qovoq, ularni parvarish qilish.

Mevali daraxtlar. Mevali daraxtlar butalar. Tok.

Manzarali o'simliklar. Manzarali daraxtlar va butalar, ularni ko'paytirish va parvarish qilish. Gullar, ularni ko'paytirish va parvarish qilish. Maktab gulzorida gullarni ekish va parvarish qilish.

Dorivor o'simliklar. Dorivor o'simliklar haqida tushuncha. Yalpiz, jag'jag', isiriq, kashnich, maymunjon, na'matak. Ularning shifobaxshlik xususiyatlari.

Tut daraxti. Ipak qurti. Tut daraxti. Bargi va mevasi. Tutzorlar. Ipak qurti. Pilla. Ipak qurti kapalaklari.

V BOB. HAYVONOT DUNYOSI

(5 soat)

Hayvonot olami va uning xilma-xilligi. Yovvoyi hayvonlar. Yirtqich hayvonlar: sher, yo'lbars, ayiq, bo'ri, ularning hayoti. O'txo'r hayvonlar: fil, jirafa, ularning hayot kechirishi.

Hasharotlar. Zararkunanda hasharotlar: kolorado qo'ng'izi, karam kapalagi, chigirtka. Mart qo'ng'izi, uning hayoti. Foydali hasharotlar: asalari, xonqizi qo'ng'izi, ipak qurti, chumoli, o'rgimchak.

Qushlar va uy parrandalari. Qushlarning tabiatdagi ahamiyati. Hasharotxo'r qushlar: chittak, jibljibon, chug'urchuq, sassiqpopishak, kakkuqush, so'fito'rg'ay. Uy parrandalari: tovuq, o'rdak, g'oz, kurka, ularni parvarish qilish.

Uy hayvonlari. Uy hayvonlari nima uchun boqiladi? Qoramollar, qo'ylar, otlar, ularni parvarish qilish.

Suvda yashaydigan hayvonlar. Baliqlar. Delfinlar. Kitlar. Baqa va qurbaqa. Ozuqa zanjiri.

VI BOB. ODAMNING TUZILISHI

(2 soat)

Odam tanasi, terisi, skeleti. Odam tanasi. Odam terisi. Odam skeleti. Yurak va uning vazifasi. Tanada qonning harakati.

Odam miyasi, hazm qilish a'zolari, o'pka. Odam miyasi. Hazm qilish a'zolari. O'pka va uning vazifasi.

VII BOB. TABIATNI MUHOFAZA QILISH

(3 soat)

Tabiat va inson. Insonning tabiatga ta'siri (ijobiy va salbiy), tabiatni muhofaza qilish tadbirlari.

Tabiat muhofazasi. "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi". "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar, ularni asrash.

Ekologik xavfsizlik. Ekologik xavfsizlik, ifloslangan havo va suvdan himoyalash, oddiy filtrlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: "o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G'ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.

5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.

6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o’qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashiriyoti. 2018.

5- 4-SINF “TABIATSHUNOSLIK” DARSLIUGI BILAN TANISHISH VA TAHLIL RE J A :

1. 4- sinf “Tabiatshunoslik” darsligi bilan tanishish va tahlil.
2. I bob. Yer – quyosh sistemasidagi sayyora.
3. II bob. Yer yuzasi tabiatining xilma-xilligi.
4. III bob. Vatanimiz bo‘ylab sayohat.

Tayanch iboralar: “Tabiatshunoslik”, “o’lkashunoslik”, “bilimlarni mustahkamlash”, “ mantiqiy tafakkur”, “darslik bilan ishlash metodikasi”.

4-sinf “Tabiatshunoslik” darsligi bilan tanishish va tahlil. Tabiiyot va geografiya fanini hozirgi zamon talablari asosida o’qitishda insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi, ularning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o’rni, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog’lashga olib keladigan geografiyaning tadqiqot yutuqlarini ko’rsatish.

Tabiiyot va geografiya ta’limida o’rganiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o’quvchilarga tushunarli holda umumiy o’rta ta’lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e’tiborni o’quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o’quvchilarning bilim olish va o’quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o’zlashtirish imkoniyatiga e’tibor qaratishdan iborat.

Umumiy o’rta ta’limda tabiiyot va geografiya o’quv fanini o’qitishning asosiy maqsadi - o’quvchilarda tayanch hamda tabiiyot va geografiya o’quv faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish;

geografik obyektlar, jarayon va hodisalar, Yer yuzining tabiiy manzarasi, aholisi va uning xo’jaligi, jamiyat va tabiatning o’zaro bog’liqligi, tabiatdan oqilona foydalanish, Yer yuzidagi global muammolar haqida fikr-mulohaza yuritishga o’rgatish, tabiatni qadrlash va muhofaza qilish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo’llash mahoratini shakllantirish;

o’quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borib, geografik bilimlarni hayotga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o’rta ta’limda tabiiyot va geografiya fanini o’qitishning asosiy vazifalari:

o'quvchilarda atrofimizdagi olamga, o'z Vataniga muhabbat hissini uyg'otish, tabiatni asrash va muhofaza qilish, nazariy bilimlarini amalda qo'llash malakalarini shakllantirish, tabiatni kuzatish, tahlil qilish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish hamda ijtimoiy hayot va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi, hozirgi zamon talablari, ta'lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan tafakkur va bilimlarni egallashi, shu bilan birga ulardan kundalik hayotlarida foydalana olishga o'rgatishdan iborat.

Tabiiyot va geografiya o'quv fanini o'rganishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilgan matematika, fizika, botanika, kimyo, iqtisodiy bilim asoslari fanlaridan olingan bilimlar umumlashtirilib, geografiyani o'rganishning birinchi davri 1 va 2-sinflarda Yer, Quyosh, ob-havo, fasllar, Yer yuzasining tuzilishi, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardagi kishilar hayoti, mehnati haqida, 3-4 sinflarda tabiat, tabiat hodisalari, mamlakatimiz geografiyasi haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi. Geografiyani o'rganishning ikkinchi davri – umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-9-sinflari bo'lib, geografiya kurslarida o'rganilgan o'quv materiallarining akademik litsey va kasb-hunar kollejlari geografiya ta'limida takrorlanmasligi e'tiborga olingan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Tabiiyot va geografiya fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar shakllantirilib boriladi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda bayon eta olish, darslik, o'quv atlaslari ma'lumotlardan samarali foydalana olish, guruhlar bilan ishlaganda muomala madaniyatiga amal qilish.

A1+

manbalardan foydalanib, mavzu bo'yicha yozma matn tuza olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

kompyuter, televizor va boshqa manbalardan mavzuga doir zarur ma'lumotlarni izlab topish, ulardan samarali foydalana olish va mediamadaniyatga rioya qilish.

A1+

media vositalardan foydalanib, mavzuga doir didaktik topshiriqlarni bajara oish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

fan to'garagida, uyda rasmlı kitoblar, jurnallardan foydalanib, mustaqil ishlay olish, sportning yoshiga mos turi bilan shug'ullana olish, o'zini tuta olish, o'zining xatosini tushuna olish.

A1+

manbalardan foydalanib, tabiat hodisalariga doir referat tayyorlay olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

farzandlik va o'quvchilik burchini biladi, unga rioya qilish, maktabda, sinfdagi jihozlar, o'quv qurollarini asrab-avaylash.

A1+

tabiiy hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his qilish, sinfda, maktabda, oilada, mahallada o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1

o'zi yashaydigan joyning maftunkor tabiati, tarixiy obidalarini, dam olish maskanlarini asrab avaylash va ularning qadriga yetish.

A1+

o'zi yashaydigan joyning maftunkor tabiati, tarixiy obidalariga doir albomlar tayyorlay olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

xarita, globus bilan ishlashda hisoblashning qulay usullarini qo'llay olish, aniq hisobkitoblarga asoslangan holda kundalik faoliyatda zarur bo'lgan dastlabki rejalarni tuza olish, uyda, maktabda suvni isrof qilmaslik va uni tejab ishlatishga amal qilish.

A1+

uyda, maktabda suvni isrof qilmaslik va uni tejab ishlatishga doir amaliy topshiriqlarni bajara olish.

Tabiiyot va geografiya fanini mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi.

Geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi.

Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi.

Ushbu fanga oid umumiy kompetensiyalar o'quv dasturlarining 1-4-sinflarida yil oxirida keltirildi. O'quv dasturida nazorat ishlari ham berildi. Mazkur nazorat ishlari mavzular kesimida joylashtirilgan.

Me'yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi:

I. TK-tayanch kompetensiyalar

1. TK1-kommunikativ kompetensiya;
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;
3. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi;
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
5. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya;
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK1-tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi;
2. FK2- geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi;
3. FK3-globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi;
4. FK4-tabiati muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi.

4-SINF

TABIATSHUNOSLIK

(34 soat, haftasiga 1 soat, A1+: 68 soat haftasiga 2 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, darslikdan foydalanib, mavzu bo'yicha yozma matn tuza olish; darslik, o'quv atlas ma'lumotlardan samarali foydalanish; muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda ijodiy tarzda ishlay olish.

A1+

atama va tayanch so'zlarni xorijiy tilda aytish va yoza olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: :

A1

kompyuter, televizor va boshqa manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, ulardan samarali foydalana olish.

A1+

manbalar asosida mavzuga doir kichik referatlar tayyorlash.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

fan to‘garagida mustaqil o‘rganish orqali bilimini oshirib borish, sportning yoshiga mos turi bilan shug‘ullanish, o‘zini tuta olish, to‘g‘riso‘z bo‘lish, o‘zining xatosini tushunish, atrofidagi tabiat manzaralarini estetik his etish.

A1+

maktabda, fan to‘garaklarida tabiatni muhofaza qilishga doir tadbirlarda ishtirok etish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

farzandlik, o‘quvchilik burchini bilish, unga rioya qilish, sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrash.

A1+

o‘zidan kattalarga, o‘rtoqlariga va o‘zidan kichiklarga yordam berish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1

o‘zi yashaydigan joyning maftunkor tabiati, tarixiy obidalarini, dam olish maskanlarini asrash va qadriga yetish.

A1+

o‘zi yashaydigan joyning maftunkor tabiati, tarixiy obidalari haqida kichik referatlar tayyorlay olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

xarita, globus bilan ishlashda hisoblashning qulay usullarini qo‘llay olish, aniq hisobkitoblarga asoslangan holda kundalik faoliyatda zarur bo‘lgan dastlabki rejalarni tuza olish, suvni isrof qilmaslik va tejamkorlikning ma’nosini tushunish, unga amal qilish.

A1+

suvni isrof qilmaslik va tejamkorlikka doir masalalarni yecha olish.

1-mavzu: Kirish. O‘lkamiz tabiati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Jonajon o‘lkamiz tabiati. Yozgi kuzatishlar. O‘simlik va hayvonlar hayotidagi yozgi o‘zgarishlar.

1-BOB. YER – QUYOSH SISTEMASIDAGI SAYYORA

(6 soat, A1+: 12 soat)

2-mavzu: Yulduzlar. Quyosh. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yulduzli osmon. Quyosh – eng yaqin yulduz. Quyosh – Yerdagi hayot manbai.

3-4-mavzu: Sayyoralar. (2 soat, A1+: 3 soat)

Quyosh sistemasi. Sayyoralar. Kichik sayyoralar: Merkuriy, Venera, Yer, Mars. Katta sayyoralar: Yupiter, Saturn, Uran, Neptun.

5-mavzu: Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari: kometalar, asteroidlar, meteorlar, meteoritlar. Kosmonavtikaning qisqacha tarixi, amaliy vazifalari.

6-mavzu: Oy – Yerning tabiiy yo‘ldoshi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Oyning shakli va o‘lchamlari. Oyning harorati. Oyning harakati. Hilol oy, yarim oy, to‘lin oy. Oyning yorug‘ va qorong‘i tomonlari.

7-mavzu: Yer shari. Globus. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yerning shakli, o‘lchamlari. Globus – Yer sharining modeli. Shimoliy va janubiy qutblar, ekvator. Beruniy globusi.

8-mavzu: Kun va tun. Yil fasllari. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yer yuzining Quyosh nuri bilan yoritilishi hamda isitilishi. Uning Yerdagi hayot uchun ahamiyati. Kun va tunning almashinishi. Yil fasllarining almashinishi.

2-BOB. YER YUZASI TABIATINING XILMA-XILLIGI

(15 soat, A1+: 30 soat)

9-mavzu: Ufq va uning tomonlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Ufq, uning asosiy tomonlari. Kompas. Mahalliy belgilarga qarab ufq tomonlarini aniqlash.

10-mavzu: Yer yuzasining asosiy shakllari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yer yuzasining asosiy shakllari: tog‘ va tekisliklar. Materiklar va okeanlar.

11-mavzu: Yer osti boyliklari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Foydali qazilmalar, yonuvchi, rudali, noruda foydali qazilmalar. Respublikamizda qazib olinadigan asosiy foydali qazilmalar. Yer osti boyliklarini tejash.

12-mavzu: Xaritalar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yarimsharlar tabiiy xaritasi. Masshtab. Xaritalarning xilma-xilligi. Tabiiy xaritalardagi shartli belgilar.

13-mavzu: O‘zbekiston Respublikasining tabiiy xaritasi. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘zbekistondagi asosiy tog‘lar, tekisliklar, vodiylar va ularning tabiiy xaritadagi tasviri.

14-15-mavzu: Suv havzalari. (2 soat, A1+: 4 soat)

Suv havzalari. Daryolar, kanallar. O‘zbekistondagi yirik daryolar va kanallar, ularning suvlaridan foydalanish.

Ko‘llar, suv omborlari. O‘zbekistondagi yirik ko‘llar va suv omborlari. O‘zbekistonda suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish.

16-mavzu: O‘simlik va hayvonot olami. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2 soat)
O‘simlik va hayvonot olamining evolyusiyasi, paleontologiya haqida dastlabki ma’lumotlar, o‘simlik va hayvonlarni muhofaza qilish.

17-mavzu: Tabiat zonalari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tabiat zonalari haqida dastlabki tushuncha, turli tabiat zonalaridagi o‘simlik va hayvonot olami, aholining turmush tarzi.

18-mavzu: Cho‘llar va vohalar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Cho‘l va voha tushunchalari. O‘zbekiston hududidagi cho‘llar. Cho‘llardagi o‘simlik va hayvonot dunyosi. Respublikamiz cho‘llarining o‘zlashtirilishi. Cho‘l va vohalarda aholining turmushi.

19-mavzu: O‘zbekiston adirlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘lkamizdagi adirlar. Adirlardagi o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiatidan foydalanish.

20-mavzu: O‘lkamiz tog‘lari tabiati. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘lkamiz tog‘lari tabiati. Tog‘lardagi o‘simlik va hayvonot dunyosi. Tog‘ tabiatini muhofaza qilish. Tog‘larda aholining yashashi va mehnat faoliyati.

21-mavzu: O‘rmonlar. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘rmon tushunchasi. O‘lkamizdagi o‘rmonlar. O‘rmonlardagi o‘simlik va hayvonot dunyosi. O‘rmon tabiatini asrash.

22-mavzu: O‘zbekistondagi tabiat boyliklari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Insonning tabiatga ta’siri. O‘zbekistondagi o‘ziga xos tabiat boyliklari, diqqatga sazovor tabiat obyektlari, ularni muhofaza qilish. Alohida muhofaza etiladigan hududlar.

23-mavzu: O‘zbekiston qo‘riqxonalari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Qo‘riqxona haqida tushuncha. O‘zbekiston qo‘riqxonalari: Chotqol, Zomin, Nurota, Surxon, Hisor, Kitob, Zarafshon, Qizilqum davlat qo‘riqxonalari va Quyi Amudaryo rezervati.

3-BOB. VATANIMIZ BO‘YLAB SAYOHAT

(11 soat, A1+: 22 soat)

24-mavzu: Vatanimiz xaritasi yonida. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘zbekistonning ma’muriy xaritasi. Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarning xaritadagi o‘rni.

25-mavzu: Toshkent shahri va viloyati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Toshkent shahri va viloyatining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

26-mavzu: Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlari. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 2soat)

Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlarining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

27-28-mavzu: Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlari. (2 soat, A1+: 4 soat)

Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

29-mavzu: Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari. (1 soat, A1+: 2 soat)
Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

30-mavzu: Buxoro va Navoiy viloyatlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Buxoro va Navoiy viloyatlarining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

31-mavzu: Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati (1 soat, A1+: 2 soat)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatining egallagan maydoni, tabiati, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish.

32-mavzu: O‘zbekiston tabiatini muhofaza qilish. Nazorat ishi. (1 soat, A1+: 3 soat)

O‘zbekiston tabiatini muhofaza qilish. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi.

33-mavzu: O‘zbekistondagi tabiat yodgorliklari va tarixiy obidalar. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘zbekistondagi tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalar va qadimgi yodgorliklar, ularni asrash.

34-mavzu: Takrorlash. (1 soat, A1+: 1 soat)

Mavzularni o‘rganish uchun- (33 soat, A1+: 67 soat)

Takrorlash uchun – (1soat, A1+: 2 soat)

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:

Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:

A1

Osmon gumbazida yulduzlarning o‘rni o‘zgarishini, Quyoshning “chiqishi” va “botishi”ni, Yer yuzidagi tabiiy jarayon va hodisalarga Quyoshning ta’sirini kuzatadi va tushunadi; ufq tomonlarni kompas va mahalliy belgilarga qarab aniqlay oladi; daryo, ko‘l, kanal suvlarining yil fasllari davomida o‘zgarishini kuzatadi; Respublikamizda qazib olinadigan asosiy foydali qazilmalar, tabiat zonalaridagi o‘simlik va hayvonot olamiga doir ma’lumotlarni tushunadi va ayta oladi. O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qilish hamda tarixiy shaharlar va qadimiy obidalarni asrash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni kuzatadi va tushunadi.

A1+

suv omborlarini qurish va ulardan qanday maqsadda foydalanishni tushunadi va ayta oladi.

Geografik obyektlar, joy nomlarini to‘g‘ri qo‘llay olish kompetensiyasi:**A1**

Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlaridagi joy va geografik obyekt nomlarini to‘g‘ri qo‘llay oladi.

A1+

o‘zi yashaydigan hudud joy nomlarini (shahar, tuman, mahalla) to‘g‘ri ayta oladi.

Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:**A1**

Yer yuzasidagi materik va okeanlar, tog‘ va tekisliklarni, O‘zbekiston Respublikasining tabiiy xaritasidan tog‘lar, tekisliklar, suv havzalarini aniqlab, ko‘rsata oladi. O‘zbekistonning ma‘muriy xaritasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning joylashgan o‘rnini, tarixiy shaharlarini xaritadan aniqlab ko‘rsata oladi.

A1+

xaritalardan foydalanib, o‘zi yashaydigan hudud (shahar, viloyat)ga tavsif bera oladi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi:**A1**

o‘zi yashaydigan joyda suv havzalarini tozalash va suvni tejash tadbirlarida ishtirok eta oladi, ichimlik suvlarini ifloslantirish sog‘lik uchun zararli ekanligini anglaydi. O‘zi yashaydigan joyda o‘simlik va hayvonlarni muhofaza qilishda o‘z hissasini qo‘sha oladi.

A1+

maktabda o‘z o‘lkasining noyob tabiat obyektlarini muhofaza qilish va tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish mavzusida o‘tkaziladigan tadbirlarida ishtirok eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: “o‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G‘ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: “Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2016.

4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.

5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.

6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. " Barkamol fayz media" nashiriyoti. 2018.

6 - MA'RUZA: OZ KOMPLEKTLANGAN MAKTABLARDA O'QUV-TARBIYA JARAYONINI TASHKILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

REJA:

1. Oz komplektlangan maktablarda tashkil etish turlari.
- 2.Oz komplektli maktablardatabiatshunoslik darsining mazmuni.
- 3.Oz komplektli maktablarda o`quv ishini rejalashtirish.
- 4.Oz komplektlangan maktablarda integratsiyalangan darslar

Tayanch iboralar: Oz komplektli maktab, bir komplektli maktab, ikki komplektli maktab.

Oz komplektlangan maktablarda tashkil etish turlari.O`zbekiston Respublikasida tog`li va cho`l joylarda kichik va uzoq aholi yashaydigan joylar mavjud bo`lib, bu joylarda bir sinfga belgilangan me'yordan ancha kam bo`lgan 6-7 yoshli bolalar bo`lganda oz komplektli maktablar ochiladi. Oz komplektli maktab shunday maktabki, unda bir o`qituvchi bir vaqtda bir necha sinf bilan ishlaydi. Bu sinfda o`quvchilar soni 3 tadan 30 tagacha bo`lishi mumkin.

Bir o`qituvchi hamma (I-IV) sinflar bilan bir vaqtda ishlaydigan maktab **bir komplektli maktab** deyiladi.

Ikkita o`qituvchi 4 ta sinf bilan ishlaydigan maktab **ikki komplektli maktab**deyiladi.

Ikki komplektli maktabda 4 ta sinfni birlashtirishning quyidagi variantlarini amalga oshirish mumkin:

1) I va II sinflar: III-IV sinflar.

2) I-III va II-IV sinflar.

Ikki komplektli maktabda bir o`qituvchi ikkita sinf bilan ishlaydi. Demak, o`quvchilar soni, tayyorligi, o`quv imkoniyatlarini hisobga olib birlashtirish ham mumkin.

Hozirgi paytda Respublikamizda asosan bir komplektli maktablar ko`pchilikni tashkil qiladi.

Oz komplektli maktabda ishlash o`qituvchi va o`quvchilar uchun bir qator qiyinchiliklar va to`siqlar bilan bog`liq.

1. O`qituvchi har kuni darsga tayyorlanishi va turli fanlardan eng kamida 8 soat dars o`tishi kerak. Oz komplektli maktabda reja tuzish ancha murakkab, har kuni 8-16 ta reja ustida ishlash qiyin va ko`p vaqt talab qilishi bilan, pedagogik samara beradigan bir butun qilib birlashtirish zarurligi bilan farq qiladi. Bularning hammasi o`qituvchidan tegishli bilimlarni bilishdan tashqari, maksimal darajada kuch-g`ayrat, uyushqoqlik, sabr va qat'iylik talab qiladi.

2. O`qituvchining bir necha sinfga diqqat e'tiborini taqsimlashi qiyin.

3. O`qituvchi butun sinf bilan darsning yarmi yoki 1/4 qismi davomida shug`ullanishga, qolgan vaqtda o`quvchilar bilan mustaqil ishlashni tashkil qilishga to`g`ri keladi.

4. O`quvchilar mustaqil ish bajarishayotganda, darhol o`qituvchidan yordam olish imkoniyati yo`q, chunki bu vaqtda o`qituvchi boshqa sinf bilan band bo`ladi.

5. O`quvchilar, boshqa sinf o`quvchilariga xalaqit berishlariga qaramasdan, mustaqil ishlaverishi kerak.

Bu qiyinchiliklar bilan bir qatorda oz komplektli maktab o`quvchilari uchun bir qator afzalliklar ham mavjud:

1. Sinf o`quvchilari sonining kamligi (3-5).

Bu o`qituvchiga tez – tez so`rab turish, o`quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish imkoniyatlarini beradi.

2. Oz komplektli maktab o`qituvchisi daftar tekshirishga oz vaqt sarflaydi.

3. O`quvchilar darsning taxminan 1/4 qismida mustaqil ishlaydi. Buning o`quv maqsadlaridan tashqari, katta tarbiyaviy ahamiyati ham bor: iroda mustahkamlanadi, uyushqoqlik, ishchanlik, qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf qilish malakasi tarbiyalanadi, o`z – o`zini tekshirish malakalari tarbiyalanadi.

4. Katta sinf o`quvchilari kichik sinf o`quvchilariga yordam berishlari mumkin, chunki ular har kuni bitta sinf xonasida o`qishadi.

Oz komplektli maktablarda tabiatshunoslik darsining mazmuni.To`g`ri tuzilgan dars jadvali o`quv – tarbiya ishi uchun optimal sharoit yaratishda katta ahamiyatga ega. Ilg`or o`qituvchilar tajribalari shuni ko`rsatadiki, hamma sinflarda bir vaqtda tabiatshunoslik dars jadvali maqsadga muvofiq bo`ladi.

Bu boshqacha jadval tuzishni istisno qilmaydi.

Keyingi vaqtlarda hamma boshlang`ich sinflar predmetlarini ikki guruhga bo`lish ko`p uchramoqda. Bunda predmetlar guruhlariga kiritish uchun shu predmetlarning mustaqil ish uchun imkoniyatlari mezon bo`lib hisoblanadi.

1-guruhga tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san'at kiradi, chunki bu predmetlarda qolganlariga nisbatan mustaqil ish uchun imkoniyatlari kattadir.

Hamma sinflarda tabiatshunoslik darslarining kombinatsiyalari ahamiyatlidir. Bunda birinchi sinfdan ikkinchi sinfga o'tishda o'z diqqat – e'tiborini o'tkazish oson, bir jinsli material mustaqil ishlar vaqtida o'quvchilar e'tiborini kamroq tortadi. Bundan tashqari, hamma sinf o'quvchilari uchun umumiy ish tashkil qilishga sharoit yaratiladi.

Ayrim maktablarda dars jadvali tuzish quyidagicha amalga oshiriladi:

1-yarim yilda 1-2 darslar faqat 1- sinflarda bo'ladi.

Buning uchun bir kunda 6 soat dars o'tish kerak, vaqtni ham 30 minutgacha qisqartirish kerak.

Masalan: dushanba kun:

Dars nomeri	Dushanba
1	I
2	I
3	I-IV
4	I-IV
5	II-IV
6	II- IV

Ko`rinib turibdiki, I-sinfda, 3-4 darslar tig'iz. 4-darsdan keyin1- sinflarga javob beriladi.

Oz komplektli maktablarda o'quv ishini rejalashtirish.Darslarni rejalashtirish ham oz komplektli maktabda ish tashkil qilishni aniqlab beruvchi omillardan biridir. Tematik–rejalar namunalari «Boshlang'ich ta'lim» oynomasi sahifalarida berib boriladi. O`qituvchi rejani tuzishda o`z sinfining xususiyatlariga asoslangan holda ishlab chiqadi. Reja hamma sinf uchun birga tuziladi. Bunda katta darsda kichik - kichik darslar hosil bo`ladi.

O`qituvchi reja tuzishda bu kichik darslarning mazmunini aniqlashdan tashqarii, bu ish darsning qaysi bosqichida, qancha vaqt, qaysi metodlardan foydalanishni ham o`ylashi kerak.

Oz komplektli maktabda tabiatshunoslik darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish xususiyatlari.

Mustaqil ish darsning asosiy qismini o`z ichiga oladi. Demak, o`quvchilarni mustaqil ish usullari bilan tanishtirish, unda tabiatshunoslikni o`qitishda turli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Agar mustaqil ish maqsadi va bajarish usullari o'quvchilarga ravshan bo'lsa, ish muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Shu sababli ishni bajarishga oid yo'l – yo'riqlar muhimdir. Ular qisqa, aniq bo'lishi lozim.

Ishni mustaqil bajarishda o'quvchilarga yordam berishda kartochkalardan foydalanish kerak.

Sinf o'quvchilari individual topshiriqni bajarishda tayyorlaydi: a) o'quvchilar tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarni anglaydi. b) o'quvchilar o'z fikr mulohazalarini daftarlariga yozadi..

Tarqatma material hosil qilishda o'quvchilar tuzgan ma'lumotlardan ham foydalanish mumkin.

Oz komplektli maktab sharoitida o'quv jarayonini ta'minlash xususiyatlari.

Oz komplektli maktablarda ham asosan umumta'lim maktablardagi kabi jihozlari qo'llaniladi.

Ammo ayrim hollarda maxsus qo'llanmalar qo'llaniladi. Masalan, bunday maktablarda sinf doskasi o'lchami kattaroq bo'lish kerak. Buning sababi, bir necha sinf bilan ishlash sharoitida doskaga topshiriqlar har bir sinf uchun alohida yoziladi.

Katakli taxtacha zarur jihozdir, chunki undan foydalanish vaqtni sarfini tejaydi. Har xil yig'ma kartochkalar bo'lsa, ularni taxtachaga qo'yib qisqa yozuvlarni, ifodalarni, tenglamalarni tez tuziladi. Bir necha sekund ichida yangi topshiriq berilishi mumkin.

Topshiriqlar berishda magnitli doska, har xil (ma'lumotlar, instruktiv, o'rgatuvchi jadvallar) ham katta foyda beradi.

Bu maktablarda diafilm, diapozitiv, magnitofondan foydalanish qulay emas.

Oz komplektlangan maktablarda integratsiyalangan darslar.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktabda ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda pedagoglar diqqatini fanlar aro aloqadorlik masalalariga qaratishni talab qilmoqda. Buning boisi shuki, fan-texnikaning jadal rivojlanishi o'quvchilarda yuksak ma'naviyat, erkin fikrlash, g'oyaviy-siyosiy yetuklik, ilmiy dunyoqarashga asoslangan e'tiqodni shakllantirishni dolzarb muammoga aylantirdi. O'quvchilarda bu sifatlarni shakllantirishda fanlar aro aloqadorlik katta imkoniyatlarga ega.

Maktab ta'limidagi tabiiy fanlar o'quvchilarga dunyoning hozirgi ilmiy manzarasi niochib beradi. Shu bois tabiat haqidagi fanlar o'quvchi dunyoqarashining tabiiy-ilmiy asosini tashkil etadi. Fanlar aroaloqadorlik o'quvchilarning umumlashgani lmiy tushunchalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bilimlar integratsiyasi ta'limga o'zgacha yondashishni taqozo qiladi.

Chunonchi, o'quv materialini umumlashgan tizimda bayon qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida muammoli, modulli, shaxsga yo'nalgan texnologiyalardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, boshlang'ich ta'limda fanlararo bog'lanishni to'g'ri yo'lga qo'yish va undan mohironalik bilan foydalanish o'quvchilarning bilish ehtiyojini orttiradi. O'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Shuningdek, o'quvchilarning tabiatshunoslik va boshqa fanlarga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida tabiiy hodisalar, jarayonlar va qonuniyatlardan foydalanish o'quvchilarda tabiiy fanlar yuzasidan olgan bilimlarining puxta bo'lishiga va ularning chuqur o'zlashtirilishiga olib keladi.

Keyingi yillarda fanlar o'rtasidagi fanlararo bog'lanishni integratsiya atamasi bilan yuritish odat tusiga aylangan.

Integratsiya - lotincha "integratio" so'zidan olingan bo'lib, to'liq, yaxlit, bir butun degan ma'nolarni bildiradi. Fanlararo o'qitishda ichki va tashqi bog'lanishlar bo'lib, ichki bog'lanish deganda shu sohaga oid o'quv fanlari mavzularining o'zaro bog'lanishi tushuniladi. Tashqi bog'lanishda esa, mazkur soha fanlari bilan boshqa o'quv fanlari mavzularining o'zaro bog'lanishi tushiniladi.

Boshlang'ich ta'limda tabiatshunoslik o'quv fanlari dasturlarini mazmunan maqsadga muvofiq tahlil qilish, ularni fanlararo o'qitishda uzviylik, ya'ni gorizontal va vertikal bog'lanishlarni aniqlash, ularni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Tabiat go'zalligini his eta olish, undan zavqlanish, e'zozlash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Ta'limning globallasuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoiliga tayanish ta'lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tadbqiqiy tus olishi lozim.

Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o'quv fanlararo munosabatlarning murakkab jihatlari to'liq o'zlashtirilishini ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borilishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrati yaxlidlik vujudga keladi.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib:

- ta'limni modernizatsiyalash, innnovatsiyon o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi oquvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi.

Maktabning asosiy fazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlid, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushina bilishni shallantirishdan iborat.

Ta'lim mazmunida inson va uning dunyoga bo'lgan munosabati: "inson va tabiat", "inson va jamiyat", "inson va texnika", "tabiat-inson-texnika-atrof-muhit" muammosi tobora markaziy o'rin egallamoqda.

Tabiatni o'rganuvchi fanlarni bir sinfda bir marta o'rganib bo'lmaydi. Uni bog'cha, maktab, tizimida uzluksiz va uzviylik asosida o'rganmoq zarur.

Tabiiy fanlar ta'limi mazmuni inson va tabiat aloqadorligi atrof-dagi muammolarni o'rganuvchi turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyligi va integratsiyani aks ettirmog'i lozim, bu esa tabiiy fanlarga oid bilimlarni sifat jihatdan yangi o'zgarishlarga olib keladi. Bu bilimlar o'ziga xos sintez, tabiiy fanlarga oid bilimlar va insonparvar yo'nalishlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Ular tafakkurning tizimli va ehtimolli uslubi sifatida tafsiflanishi tabiiy bilimlarning ajralib turadigan xususiyatlari sirasiga kiradi.

Ayni uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya biosferani ilmiy bilish, inson faoliyatini o'rganish, tinchlik uchun kurash bo'yicha global masalalarning yechimini topishda tabiiy fanlarning o'rnini samarali tarzda belgilab berish mumkin. Provard natijada, bu barcha maktab o'quv jarayonlaridagi maxsus bilimlar bilan umumiy-madaniy bilimlar o'rtasidagi o'zaro nisbatning uzviylik asosida o'zgarishiga (keyingilarining foydasiga) olib keladi.

Shu tariqa, oz komplektlangan maktablarda uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya tabiiy fanlar ta'limini mazmunini insonparvarlashtirishning asosiy mexanizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Yangi didaktik tizimni ishlab chiqishda dunyoni yaxlid idrok etish, tizimli tafakkur va "tabiat - inson" tizimini aksiologik jihatdan baholash dastlabki ko'zda tutilgan maqsad bo'lib hisoblanadi. Bunday yondashuvda o'qitishdan ilmiylik tamoyili butunlay yangicha sifat kasb etadi.

Ilmiylik mezonlarida zamonaviy ilmiy uslubda fikrlashning bilimlar oldidagi shubhasiz ustunligi hisobga olinadi.

“Tabiatshunoslik” kursi konsepsiyasini ishlab chiqishda biz zamonaviy, rivojlanayotgan jamiyatga o’tish davrida o’quvchilar dunyoqarshining real dunyodagi obektiv munosabatlarini uzviylik asosida integratsiyalashgan tarzda aks ettiruvchi “inson-tabiat” tizimidagi o’zaro aloqadorlik to’g’risidagi bilimlarga asoslangan bilish kerakligini hisobga oldik. Bunday yondashuv o’quvchilarning zamonaviy jamiyatning ma’naviy timsollari ekologiyaning qat’iy talabiga teran bog’liq ekanini tushuntirishga olib keladi (tabiatdan ilmiy asoslangan tarzda foydalanishgina insoniyatning omon qolishini ta’minlab va uning kelgusi rivojlanish yo’lini belgilab bera oladi xolos).

“Tabiatshunoslik” integrativ kursi oz komplektlangan maktablarda o’quvchilar dunyoning hozirgi tabiiy-ilmiy ko’rinishiga muvofiq keluvchi fikrlash uslubi (tizimli tafakkur) ni shakllantirishga yo’naltirilgan, bu hozirgi dunyoning insonparvar yo’l bilan hal etilishini kutayotgan dolzarb muammolarni anglab yetishga imkon yaratadi. Kurs tabiiy fanlar ta’limini mazmunini insonparvarlashtirish konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan bo’lib, u bilimlarni yagona metodologik negizida integratsiyalashni: tabiatshunoslik obektlarini “tabiat-fan-texnika-jamiyat-inson” tizimida o’rganish lozimligini asoslab beradi.

Gorizontal bog’lanish deganda, o’quv fanlari mavzulari dastur va o’quv rejasi asosida sinflar aro parallel bog’lanish tushuniladi. U quyidagicha ifodalaniladi: 2-sinf “Atrofimizdagi olam ” darsligidagi “Kuz- hosil yig’iladigan fasil”, “Hasharotlar hayoti”, “Qish”. “Bahorda o’simliklar hayoti” “Bahorda kishilarning mehnati” “yoz o’tadi soz” mavzularini 2-sinf “O’qish” darsligidagi “Kuz ne’matlari”, “Chumoli bilan Chigirtka”. (O’zbek xalq ertagi), “Qish manzarasi” “Bahor keldi”.(She’r. Otayor) “Dono dehqonbobo”(ertak) “Yoz”. (She’r. Habib Rahmat) mavzularini fanlar aro o’zaro bog’lab tushuntirish misol bo’ladi. Bu bog’lanish turi asosan, dars jarayonida sinflar aro parallel ravishda shakllantiriladi.

Vertikal bog’lanish deganda, o’quv fanlari mavzulari dastur va o’quv rejasi asosida avvalgi sinflarda o’zlashtirilgan bilimlardan foydalanish orqali sinflar aro bog’lanish tushuniladi. Masalan, 4-sinf “Tabiyatshunoslik” darsligidagi, “O’rmonlar” “O’lkamiz tog’lari tabiati”, “Insonning tabiatga ta’siri. Qo’riqxonalar” , “Toshkent shahri va Toshkent viloyati tabiati” mavzularini 3-sinf “O’qish” darsligidagi “Ona tabiat.”(She’r. Qambar ota), “Tabiat bilan

suhbat.”(Rivoyat),”Inson insonga o’rtoq (She’r. H. Yoqubov) “Toshkent” mavzulari bilan fanlar aro o’zaro bog’lab tushuntirish misol bo’ladi. Bu kabi bog’lanish turlari asosan, sinfdan tashqari (har xil to’garaklarda, olimpiada, konferentsiya va boshqalar bo’yicha) o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish va o’tkazish mumkin

Dars jarayonida fanlar aro aloqadorlikni samarali amalga oshirish o’quvchilarni yangi o’quv materiallarini qabul qilishga tayyorlash, fanlar aro, mavzular aro bog’lanishni amalga oshirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, shuningdek, har bir darsni rejalashtirish va ularni mohirona o’tkazish o’qituvchidan chuqur va puxta tayyorgarlik ko’rishni talab qiladi. Bu esa o’z navbatida dars samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o’qitish metodikasi. O’quv qo’llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: “o’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G’ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: “Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho’lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.
6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o’qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashiriyoti. 2018.

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. M.Nuritdinova. Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi. T.:O‘qituvchi 2005 y.
2. A.Baxramov. Tabiatshunoslik 4- sinf Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik T: Sharq NMIU 2013.
3. A.Baxramov. Tabiatshunoslik 3- sinf Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik T.: Cho‘lpon NMIU 2008.
4. P.G‘ulomov, Mirzaaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2- sinf uchun darslik T.: Cho‘lpon NMIU 2012.
5. A.G.Girigoryans. Atrofimizdagi olam 1-sinf uchun darslik. T: Cho‘lpon NMIU 2012.

Qo‘shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz -Toshkent, O‘zbekiston, 2017. -488b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2016. -56b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravoniigining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017. - 104 b.
10. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
11. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o‘qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashriyoti. 2018.
12. Tabiiy fanlar [Matn]: 1-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 88 b.
13. Tabiiy fanlar [Matn]: 2-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.
14. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho‘lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
15. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.

Internet saytlari

15. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
16. www. Ziyonet.uz
17. www. edu. Uz
18. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI

BOSHLANGICH TA'LIM KAFEDRASI

**TABIATSHUNOSLIK VA UNI O`QITISH METODIKASI
FANIDAN
AMALIY MASHG`ULOT MATERIALLARI**



Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lim yo`nalishi: 5111700 – Boshlang`ich ta'lim va sport tarbyaviy

Termiz-2021

ANNOTASIYA

Amaliy mashg'ulotda tabiatshunoslikni o'qitishda foydalaniladigan dars turlari; tabiatshunoslik o'qitish vositalari; sinf va sinfdan tashqari - mashg'ulotlarda didaktik o'yinlarni qo'llash metodikasi; ekskursiyani tashkil etish va uni o'tkazish metodikasi; ommaviy sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish, turli mavzulardagi bayram va tadbirlarni o'tkazish senariylarini tayyorlash; tabiatshunoslik darslarida o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullari; tabiatshunoslik darslarida o'quv vositalari, multimedia, tarqatma va didaktik materiallardan foydalanish metodikasi; o'quv-tajriba uchashtasida mavsumiy ishlarni tashkil etish; jo'g'rofiya maydonchasida kuzatish, amaliy va laboratoriya ishlarining yillik rejasini tuzish; atrofiidagi olam va tabiatshunoslikdan dastur va mavjud ko'rgazmali qurollar tahlili; o'qituvchini tabiatshunoslik darslariga tayyorgarlik ko'rish, rejalashtirish. Taqvim reja, dars ishlanmasini tuzish; Metodik adabiyotlarni tahlil qilish; tabiatshunoslik darslarida darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish; tabiatshunoslik darslarida tabiat kalendari bilan ishlash metodikasi; Tabiatshunoslikdan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish; shuningdek, tabiatshunoslik darslarida didaktik o'yin, o'quv munozaralari, burch va mas'uliyatini shakllantirish) metodlari guruhiga e'tibor qaratildi.

Amaliy mashg'ulot 5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriatida ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: D.Kadirova - TerDU "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida dotsenti, biologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchilar: X. Norbo'tayev - TerDU "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari doktori.

Sh. Yoqubov - TerDU "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Amaliy mashg'ulot: Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti o'quv uslubiy Kengashida 2021 yil 28 avgustdagi № 1-sonli va "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasining 2021 yil 28 avgustdagi № 1-sonli bayonnomasi bilan muhokama qilingan va o'quv jarayoniga qo'llash uchun tavsiya etilgan.

Ushbu amaliy mashg'uloti Termiz davlat universiteti o'quv - uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. (2021 yil "28" avgustdagi 1-sonli bayonnomasi).

1 – Amaliy mashg'ulot. Tabiatshunoslikdan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish

Mashg'ulotdan maqsad: Sinfdan tashqari mashg'ulotlar to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish, sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish ko'nikmalarini shakllantirish. Talabalarni mustaqil holda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning reja va konspektini tuzishga o'rgatish.

Kerakli jihozlar: O'simlik yoki hayvonlar, jonsiz tabiat jismlari haqidagi qiziqarli adabiyotlar, gerbariy va kolleksiyalar, tabiiy ko'rgazmali qurollar, model va maketlar, albom, qora qalam, rangli qalam.

Talaba bilishi kerak:

- sinfdan tashqari mashg'ulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- sinfdan tashqari mashg'ulotlarning reja va konspektini tuzishni.

Talaba bajarishi kerak:

- sinfdan tashqari mashg'ulotlar (tadbir yoki kechalar) uchun reja tuzishi;
- sinfdan tashqari mashg'ulotlar uchun konspekt yozishi.

Ishni bajarish tartibi:

- sinfdan tashqari mashg'ulotlarning tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi roli haqida o'qituvchining ma'lumot berishi;
- sinfdan tashqari mashg'ulotlar turlarining qisqacha bayoni;
- sinfdan tashqari mashg'ulotlarning reja va konspektini tuzish haqida ma'lumot berish va buni amalda ko'rsatish;
- talabalarining xohlagan mavzuda sinfdan tashqari mashg'ulot rejasi va konspektini (senariysini) tuzishi.

Umumiy ma'lumot: Maktabda bolalar bilan darsdan tashqari vaqtlarda har xil mashg'ulotlar: ekskursiyalar, to'garak ishlari, ertaliklar, sinfdan tashqari ishlar, qiziqishlar bo'yicha klublar va boshqa ishlar o'tkaziladi. Bu ishlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida ularning bilishga qiziqishlarini uyg'otish va shuningdek maktab dasturini kengaytirish hamda to'ldirish maqsadida amalga oshiriladigan darsdan tashqari ko'pchilik faoliyat shakli bo'lgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, bu vaqtdan unumli foydalanish, imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki o'quvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy dunyoga qarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishni va mustaqil kuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va tabiatga

muhabbatni tarbiyalaydi. Tabiatshunoslik boyicha yo'lga qoyilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir.

Uzoq muddatli tajribalar qoyish, gerbariy va kolleksiyalar uchun material yig'ish, model, maket va boshqa ko'rgazmali qurollar tayyorlash, tirik tabiat burchagi va o'quv-

tajriba maydonchasidagi ishlar kabi sinfdan tashqari ishlarning shakllari tabiatni o'rganishni hayot bilan bog'lash va o'quvchilarni politexnik tayyorgarlik uchun ahamiyatli bo'lgan amaliy o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantirish imkoniyatini beradi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning barcha turlari bir-biriga bog'liq bo'lishi, biri ikkinchisini to'ldirishi kerak. O'simlik va hayvonlar bilan ishlashga darslarda vujudga kelgan qiziqish sinfdan tashqari mashg'ulotlarda rivojlanishi mumkin, ayniqsa tabiatshunoslik bilan qiziqqan o'quvchilar esa yosh tabiatshunoslar to'garagiga birlashtirilishi mumkin. O'quvchilarda tabiiy ob'ektlarni kolleksiyalashtirishga moyillikni, hayvonlarga muhabbatni payqagan o'qituvchi ularning qiziqishlariga qarab mashg'ulotlar topishi, tabiat to'g'risidagi fanni chuqurroq o'rganish istagini rivojlantirish zarur.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va muhofaza qilish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Bu mashg'ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblar o'qish bilan birga olib borilishi kerak.

Tabiatshunoslikda sinfdan tashqari to'garak ishlari o'qituvchi rahbarligida olib boriladi.

Avvalo to'garakning ish rejasi tuzib olinadi. Rejani tuzishda mashg'ulotlar mavzusi dars mashg'ulotlari mavzusini takrorlamasdan, ularga asoslangan holda bir-birini to'ldirishi kerak. To'garak ishlari ham darsda olgan nazariy va amaliy bilimlarni yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

“Nonni e'zozlang” kechasi uchun reja:

1. Kirish. Kechani olib boruvchilarning tabrigi.
2. Non tayyorlashning tarixi haqida ma'ruza.
3. Non ishlab chiqarish haqida, bug'doy navlari haqida ma'ruzalar.
4. Tanaffus vaqtida o'quvchilar tomonidan tayyorlangan non haqidagi she'r va qo'shiqlarning ijro etilishi, maqollarning yoddan aytilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T., 2005.

2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: “o'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G`ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: “Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.
6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashiriyoti. 2018.

2 - Amaliy mashg'ulot. Tabaitshunoslik darslarida tabiat kalendari bilan ishlash metodikasi (2 soat)

Mashg'ulotdan maqsad: Tabaitshunoslik darslarida tabiat kalendari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Tabiiy ko'rgazmali qurollar, model va maketlar, albom, qora qalam, rangli qalam.

Talaba bilishi kerak:

-tabiat kalendari bilan ishlash ko'nikmalarini to'g'risidagi ma'lumotlarni.

Talaba bajarishi kerak:

-tabiat kalendari bilan ishlash uchun reja tuzishi;

-tabiat kalendari bilan ishlash haqida konspekt yozishi.

Ishni bajarish tartibi:

- tabiat kalendari bilan ishlash haqida qisqacha bayoni;

-tabiat kalendari bilan ishlash haqida a'lumot berish va buni amalda ko'rsatish;

- talabalarning xohlagan mavzuda tabiat kalendari bilan ishlash haqida rejasi va konspektini (senariysini) tuzishi.

Umumiy ma'lumot: Tabiat va mehnat kalendariga kuzatish ma'lumotlarini har kuni yozib borish kuzatishlarga turg'un qiziqishni singdiruvchi maqsadga muvofiq uslublardan hisoblanadi. Tabiat va mehnat kalendariga yozilgan ma'lumotlarni faqat tabiatshunoslik darslaridagina emas, balki matematika (masalalar tuzish, diagramma chizish), ona tili (insho tayyorlash, biror davrda tabiatni ko'rsatish uchun she'rlar va nasriy asardan parchalar tanlash), mehnat ta'limining qishloq xo'jalik mehnati bo'limi (biror davrdagi ob-havo o'quv-tajriba maydonidagi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatganligini tahlil qilish) darslarida ham umumlashtirish mumkin.

Bolalarni jism va hodisalarni ko'ra olish, eshitish va qabul qilib olishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchisining eng muhim vazifalaridan biridir.

Bolalar ko'pincha ikkita tanish daraxtga (masalan, chinor va zarangga) qaraydilaru, ularni bir-biridan ajrata olmaydilar. Bolalar suratni ko'rib, undagi eng muhim tomonlarni ko'ra oladilar, deb bo'lmaydi. O'qituvchi ular oldiga aniq obyektlarni topish, ularni ta'rifiash, savollarga javob berishga oid muayyan vazifalar qo'yishi kerak.

Shunday qilib, tabiatshunoslikni o'qitishda ko'rgazmali uslubdan foydalanish bolalarda aniq faktik bilimlarning to'planib borishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: "o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G'ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.
6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. "Barkamol fayz media" nashriyoti. 2018.

3 -Amaliy mashg'ulot.Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirish (2 soat)

Mashg'ulotdan maqsad: Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga doir suratlar tasvirlangan rangli plakatlari, videofilm.

Talaba bilishi kerak:

- ilmiy dunyoqarash asoslari to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga doir ma'lumotlarni.

Talaba bajarishi kerak:

- o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga oid dars ishlanmalari tayyorlashi.

Ishni bajarish tartibi:

- o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish haqida bilimlar berish;
- o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida suhbat;
- o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga doir dars ishlanmalari tayyorlashni amalda ko'rsatish;

- o'quvchilarning o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga doir dars ishlanmalari tayyorlashi;
- o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash.

Umumiy ma'lumot: Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida dunyoni ilmiy tushunish asoslarini shakllantirish uchun tabiatga insonparvarlik munosabatini, vatanparvarlikni va go'zallikni tushunish darajasida tarbiyalash kerak.

Tabiatshunoslik tushunchalarining shakllanishi murakkab fikrlash jarayonining natijasidir. Bu jarayonni boshqara turib, o'qituvchi yorqin misollarda tabiat sirlarini ochib beradi, ilmiy dunyoqarash asoslarini o'quvchilarga singdiradi.

Bolalarni atrof tabiat va odamlar hayoti bilan tanishtira borib, o'qituvchi aniq misollarda tabiat hodisalarining sabablarini tushuntirib berishi kerak va o'quvchilarning bu hodisalar o'rtasidagi oddiy bog'lanishlarni tushunib olishlariga erishishi lozim. Natijada o'quvchilar tabiat-bir butunlik, unda jism va hodisalar biri-biri bilan uzviy aloqada, biri-biriga bog'liq ekanligini tushunib olishga imkon beradigan bilimlarni to'playdilar.

Tabiatshunoslik darslarida ilmiy dunyoqarash asoslari o'qituvchi tomonidan rejali ravishda uzoq vaqt davomida olib boriladigan ishlar jarayonida shakllanadi. Tabiatshunoslikni o'rgana boshlashdanoq o'quvchilarda o'simlik va hayvonot dunyosi to'g'risida ilmiy tushunchalarni shakllantirib borish, amaliy ishlarni bajarish, tajribalar, kuzatishlar, ekskursiyalar o'tkazish jarayonida esa olingan tushunchalar ilmiy nuqtai nazaridan tasdig'ini berishi lozim.

Tabiat hodisalarining o'zaro bog'lanishini (quyosh nuri energiyasi suvni qizdiradi, u bug'lanadi, keyin yog'in tarzida tushadi) ocha turib, o'qituvchi o'quvchilarda tabiatga munosabatni asta-sekin rivojlantirib boradi. Yakka tartibdagi bevosita kuzatishda o'quvchilar dastlab fahmlab olgan o'zaro aloqa barcha tabiat hodisalarini bir-biriga bog'lovchi, aniq namoyon bo'lgan qonuniyat xarakterini oladi.

Atrof olamga bo'lgan bola qiziqishini quvvatlash uchun o'qituvchi barcha savollarga aniq-ravshan, muhimi qiziqarli va tushunarli qilib javob berishi kerak. Bolalar bilan ishni (kuzatish, tajriba, amaliy ish, ekskursiyalarni) shunday tashkil qilish kerakki, ularning o'zlari tabiatning ayrim hodisalari o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashga, ularda borayotgan o'zgarishlarni payqashga o'rgansinlar. Shundagina ular o'zlarini qiziqtirgan savollarga mustaqil javob bera oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.

2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: "o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.

3. G`ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: “Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2016.

4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho`lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.

5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.

6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o`qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashiriyoti. 2018.

4 -Amaliy mashg`ulot.Tabiatshunoslik darslarida o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish

Mashg'ulotdan maqsad: O'quvchilarda ekologik madaniyat haqida tasavvur va tushunchalar hosil qilish. Ekologik madaniyatni shakllantirish asosidagi darslar tashkil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Ekologik madaniyatni shakllantirishga oid suratlar tasvirlangan rangli plakatlari va videofilm.

Talaba bilishi kerak:

- ekologik madaniyat to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- ekologik madaniyatni shakllantirishga doir ma'lumotlarni.

Talaba bajarishi kerak:

- ekologik madaniyatni shakllantirishga oid dars ishlanmalari tayyorlashi.

Ishni bajarish tartibi:

- talabalar tabiatshunoslikka va ekologiyaga oid adabiyotlardan ma'lumotlar yig'adilar;
- talabalarga ekologik madaniyatni shakllantirish haqida bilimlar berish;
- ekologik madaniyatni shakllantirishning tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida suhbat;
- ekologik madaniyatni shakllantirishga doir darslar tashkil qilish dars ishlanmalari tayyorlanishini amalda ko'rsatish;
- talabalarning ekologik madaniyatni shakllantirishga doir dars ishlanmalari tayyorlashi;
- talabalar bilimni nazorat qilish va baholash.

Umumiy ma'lumot: Ekologik madaniyat umumiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sanalib, shaxsning ma'naviy hayoti va kundalik hayotida hatti-harakat shaklida namoyon bo`ladigan, hayotning va tabiatning bebaho ahamiyatini anglash, ularni asrab avaylash, muhofaza qilishda faollik ko'rsatish kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu madaniyat albatta o'quvchilarning ekologik ta'lim - tarbiyasi asosida vujudga keladi. Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi o'quvchilarda tabiatga

nisbatan burch va ma'suliyat, ongli munosabatni tarkib toptirish, sharqona odob-ahloq me'yorlariga mos xulq-atvorni shakllantirish sanaladi.

O'qituvchi har bir darsda, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va ekskursiyalarda o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha rejali va muntazam ish olib borishi zarur.

Tabiatshunoslikni o'qitishda ekologik masalalar keng qamrovli bo'lib, hamma o'quv fanlarida mujassamlashgan. Ushbu o'quv materiallari o'quvchilarning tabiatdagi uyg'unlik, unda sodir bo'ladigan hodisalar, o'zgarishlar, ular o'rtasidagi uzviylik va mazkur uzviylikni, o'zaro bog'lanishlarni buzib yuborish osonligini tushunishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiatshunoslikdan bilim berish orqali ekologik tushunchalar: organizm va muhitning o'zaro bog'liqligi, tabiiy jamoalarning almashinuvi, biogeosenozlar, ekologik sistemalarning o'zgarishi, biosfera, insonning ekologik omil ekanligi va h.k. o'quvchilar tomonidan mustahkam o'zlashtirishlari, ko'nikma va malakalarni egallashga erishishi lozim.

O'quvchilarda ekologik madaniyatni tarkib toptirishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

1. O'quvchilar tomonidan tabiatning yaxlitligi, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi haqidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirishga asos bo'ladigan ekologik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga erishish;
2. Tabiat va uning tarkibiy qismlarining keng ma'nodagi ahamiyatini tushunish, tiklanadigan va tiklanmaydigan boyliklarning farqiga yetish;
3. Tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish, atrof-muhitning tozaligini asrash, ko'kalamzorlashtirish va tabiiy boyliklarni ko'paytirish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar, ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish motivlarini shakllantirish.

Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilish zarur:

1. Tabiat va atrof muhitni o'rganish va o'zlashtirish insonning bilish va amaliy faoliyati birligi asosida tashkil etiladi. Shu sababli o'qituvchi tabiatshunoslikni o'qitishda tabiatning har bir tarkibiy qismi, shu jumladan, o'simlik va hayvonlarning tuzilishi, hayotiy jarayonlari o'rganilganda o'quvchilarga ilmiy bilimlar berish bilan birga, mazkur bilimlarni amaliyotga tatbiqi haqida ham ma'lumot berishi, har bir organizmga tashqi muhitning ko'rsatadigan ta'siri, organizmlarning yashash muhitiga moslashishini tushuntirilishi;

2. Insonning jonsiz va jonli tabiatga, o'simliklar olami va hayvonot dunyosiga ko'rsatgan ijobiy va salbiy ta'sirini yoritish asosida, tabiat, inson va jamiyat

munosabatlari tushuntirilishi, fan sohalari bo'yicha to'plangan ilmiy bilimlar integratsiyasi va fanlararo bog'lanishlar amalga oshirilishi;

Sayyoramizda vujudga kelgan lokal va global ekologik muammolarni hal etishda dunyo hamjamiyati, davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyati, ya'ni ushbu ekologik muammolarning hal etilishida davlatlararo umumiy aloqadorlik masalalari haqida ma'lumot berilishi;

O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish barkamol shaxsni kamolga yetkazish borasida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy tarkibiy qismi ekanligini nazarda tutish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: "o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G'ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.
6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. "Barkamol fayz media" nashriyoti. 2018.

5 - Amaliy mashg'ulot. Atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik datslarida kuzatish orqali yangi bilim va tushunchalarni shakllantirish (2 soat)

Mashg'ulotdan maqsad: Atrofimizdagi olam va tabaitshunoslik darslarida kuzatish kundaligi bilan ishlash orqali o'quvchilarda yangi bilim va tushunchalarni shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Tabiiy ko'rgazmali qurollar, albom, qora qalam, rangli qalam.

Talaba bilishi kerak:

-tabiatda kuzatish kundaligi bilan ishlash ko'nikmalarini to'g'risidagi ma'lumotlarni.

Talaba bajarishi kerak:

- tabiatda kuzatish kundaligi bilan ishlash uchun reja tuzishi;
- tabiatda kuzatish kundaligi bilan ishlash haqida konspekt yozishi.

Ishni bajarish tartibi:

- tabiatda kuzatish kundaligi bilan ishlash haqida qisqacha bayoni;

-tabiatda kuzatish kundaligi bilan ishlash haqida ma'lumot berish va buni amalda ko'rsatish;

- talabalarning xohlagan mavzuda tabiatda kuzatish kundaligi bilan ishlash haqida rejasi va konspektini (senariysini) tuzishi.

Umumiy ma'lumot: Kuzatish - tabiat jismlari va hodisalarining tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan holda bevosita shu hodisalarni borishiga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olish yoki laboratoriya sharoitida ularni qayta tiklashdir.

Kuzatish tabiatni o'rganishning ko'rgazmali metodidir.. Kuzatishlar ikki belgi: muayyan maqsadning bo'lishi va diqqatni kuzatish obyektni bilgan holda to'plash bilan xarakterlanadi.

Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli kuzatishlar biror narsani qabul qilib olish uchun o'tkaziladi. Hayvonlar (kirpi, toshbaqa, shoxilon, kapalak, ninachi)ning harakatlanishini kuzatish qisqa muddatli kuzatishga misol bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatli kuzatishlar vaqt oraliqlari bilan bo'lingan, lekin yagona uzluksiz jarayonni hosil qilgan qator hodisalarni qamrab oladi.

Kuzatish uchun oson (uddalasa bo'ladigan) obyektlarni tanlash zarur. Kuzatishlar o'lkashunoslik xarakterida bo'lsin. Juda murakkab va tushunarli bo'lmagan hodisa va narsalarni tanlash kerak emas. Bu o'quvchilar qiziqishini sovitishi va kuzatishni chaikashtirib yuborishi mumkin. Tanlangan shakllardan qat'i nazar 1- 4 - sinf o'quvchilari uchun o'lkashunoslik kuzatishlari albatta izchil bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'lkashunoslik kuzatishlar kompleksi albatta tizimlashgan tabiatshunoslik bilimlarini tushunib olishga, idrok qilish faolligini, tabiatga qiziqish va muhabbatni rivojlantirishga, tabiat (atrof) obyektlari to'g'risidagi bilimlarni kengaytirishga yo'naltirilmog'i lozim.

Kuzatishning natijalari yil fasillari bo'yicha "Kundalik kuzatish daftari" va sinfning tabiat hamda mehnat kalendarlari qayd etib boriladi. Alohida e'tibor quyosh balandligining, kun va tun uzunligining yil fasillari bo'yicha o'zgarishini kuzatishlariga qaratiladi. Bu kuzatishlar o'quvchilarga tabiat va odamlar mehnat faoliyatidagi mavsumiy o'zgarishlar sabablarini aniqlash imkoniyatini beradi. "Kundalik kuzatishlar daftari" dagi mahsus manbalar bolalarni kuzatishlar o'tkazishga yordam beradi. M: Yozda siz tabiatda nimalarni kuzatdingiz?, Qanday o'simliklarni bilasiz?

Tabiat va mehnat kalendariga kuzatish ma'lumotlarini har kuni yozib borish kuzatishlarga turg'un qiziqishni singdiruvchi maqsadga muvofiq uslublardan hisoblanadi. Shu maqsadda o'quvchilardan biri doskaga taklif qilinadi, u ob-havoni batafsil tariflaydi, kun davomida tabiat va odamlar mehnatida qanaqa qiziqarli

holatlar bo'ganligi haqida gapirib beradi. Tabiat va mehnat kalendariga kuzatish ma'lumotlarini har kuni yozib boorish kuzatishlarga turg'un qiziqishni singdiruvchi maqsadga muvofiq uslublardan hisoblanadi. Shu maqsadda o'quvchilardan biri doskaga taklif qilinadi, u ob-havoni batafsil ta'riflaydi, kun davomida tabiat va odamlar mehnatida qanaqa qiziqarli hoatlar bo'lganligi to'g'risida gapirib beradi. Uning javobini o'toqlari to'ldiradi va aniqlaydi. Javob o'qituvchi tomonidan albatta baxolanadi, kuzatish kalendariga yoziladi.

Bolalarni narsa va hodisalarni ko'ra olish, eshitish va qabul qilib olishga o'rgatish - Boshlang'ich sinf o'qituvchisining eng muhim vazifalaridan biridir. Bolalar ko'pincha ikkita tanish daraxtga (masalan, chinor va zarangga) qaraydilaru, ularni bir-biridan ajrata olmaydilar. Bolalar suratni ko'rib, undagi eng muhim tomonlarini ko'ra oladilar, deb hisoblab bo'lmaydi. O'qituvchi ular oldiga aniq ob'ektlarni topish, ularni ta'riflash, savollarga javob berish bo'yicha muayyan vazifa qo'yishi kerak.

Kuzatuvchanlik tabiatga, ishlab chiqarishga, muzeyga, fermaga, zooparkka ekskursiyalar o'tkazish vaqtida ham rivojlanadi. Bu ekskursiyalar shunday ko'rishgina emas, balki sinchiklab qarash, shunday eshitishgina emas, balki diqqat bilan quloq solish qobiliyatini tarbiyalaydi. Tabiatshunoslikni o'qitilishini to'g'ri qo'yilishi Boshlang'ich maktabdayoq bolalarni tabiat jismlari va hodisalarini kuzatishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: "o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G'ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.
6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. " Barkamol fayz media" nashiriyoti. 2018.

6 - Amaliy mashg'ulot. Ekologik madaniyatni shakllantirishda o`quvchining kuzatishga yo`naltirilgan topshiriqlar

Mashg'ulotdan maqsad: Ekologik madaniyatni shakllantirishda o`quvchilarda kuzatishga yo`naltirilgan topshiriqlar orqali yangi bilim va tushunchalarni shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Ekologik madaniyatga oid tabiiy ko'rgazmali qurollar.

Talaba bilishi kerak:

- ekologik madaniyatni shakllantirishda o`quvchining kuzatishga yo`naltirilgan topshiriqlar orqali ishlash ko'nikmalarini to'g'risidagi ma'lumotlarni.

Talaba bajarishi kerak:

- ekologik madaniyatni shakllantirishda o`quvchining kuzatishga yo`naltirilgan topshiriqlar rejasini tuzishi;
- tabiatda kuzatish kundaligi bilan ishlash haqida konspekt yozishi.

Ishni bajarish tartibi:

- ekologik madaniyatni shakllantirishda o`quvchining kuzatishga yo`naltirilgan topshiriqlar haqida qisqacha bayoni;

- ekologik madaniyatni shakllantirishda o`quvchining kuzatishga yo`naltirilgan topshiriqlar haqida ma'lumot berish va buni amalda ko'rsatish.

Umumiy ma'lumot: Bugungi kunda yoshlarda tabiatga nisbatan insonparvarlarcha munosabatni shakllantirish masalasi ko`ndalang turgan ekan, pedagog kadrlar o`z mehnat faoliyati davomida yoshlarda tabiat qonunlari, inson va tabiat, ularning o`zaro mutanosibligi, tabiiy muvozanatni saqlash haqidagi bilimlarni va bular negizida ekologik madaniyatni tarkib toptirishlari, shuningdek, o`quvchilar orasida ekologik mavzulardagi tarbiyaviy ishlarni puxta rejalashtirishlari va amalga oshirishlari lozim bo'ladi.

Ekologik madaniyat - bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof muhitga nisbatan faoliyatining yuksak ko'rsatkichi, ongli va masuliyatli yondashuv. Unda tabiat bilan inson o`rtasida o`zaro oqilona mas'uliyatli munosabat tarkib topadi. Shuningdek, ekologik madaniyatning asosiy tarkibiy qismini ekologik ong tashkil etadi. Ekologik ong inson bilan tabiat o`rtasidagi o`zaro aloqalarni ifodalovchi bilim, tushuncha, tasavvur, munosabat, harakatlar majmuidir.

Umumta'lim maktab o`quvchilariga dars jarayonida ekologik madaniyat doimiy ravishda tabiiy fanlarni o`qitishda, shuningdek, sinfdan va makabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali bolalarga atrof-muhit, o`simlik, hayvonlar haqida ma'lumot beriladi hamda tozalik va ozodalikka rioya qilish, tabiatdagi barcha narsalarni asrab-avaylash singdirilib boriladi.

Boshlang'ich sinf o`quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishga oid topshiriqlar:

1.Tabiatshunoslik darslarida ekologik tarbiya berish mavzusida ilmiy axborot tayyorlang.

2.Tabiatshunoslik darslarida moddiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga oid ma'lumotlar to'plang.

3.Tabiatni estetik qabul qilish deganda nimani tushunasiz?

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishga oid manbalarni e'tirof eting.

5.Tabiatshunoslik darslarida odobiy tarbiya qanday o'rin tutadi?

6.Tabiatshunoslik darslarida ekologik tarbiya berish xususiyatlari nimalardan iborat?

7.Tabiatshunoslik darslarida tabiatga muhabbat, uni asrash hamda muhofaza qilishga intilishni tarbiyalashning qanday metodik uslublari bor?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.

2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: "o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.

3. G'ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2016.

4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.

5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.

6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. " Barkamol fayz media" nashriyoti. 2018.

7- Amaliy mashg'ulot. Tabiatshunoslik darslarida kuzatish ishlarini tashkil etish

Mashg'ulotdan maqsad: Tabiatshunoslik darslarida kuzatish ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Tabiiy ko'rgazmali qurollar, albom, qora qalam, rangli qalam.

Talaba bilishi kerak:

- kuzatish ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishni.

Talaba bajarishi kerak:

- kuzatish ishlarini tashkil etish haqida reja tuzishi;
- kuzatish ishlarini tashkil etish haqida konspekt yozishi.

Ishni bajarish tartibi:

- kuzatish ishlarini tashkil etish haqida qisqacha bayoni;
- kuzatish ishlarini tashkil etish haqida ma'lumot berish va buni amalda ko'rsatish;
- talabalarning xohlagan mavzuda tabiatda kuzatish rejasi va konspektini (senariysini) tuzishi.

Umumiy ma'lumot: Birinchi sinfda kuzatishlar o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab olib boriladi. Ob-havoning o'zgarishlarini kuzatish g'oyat muhimdir. Osmonning holatlarini kuzatish jarayonida “ochiq”, “bulutli”, “kam bulutli” tushunchalari shakllanadi. Shu vaqtning o'zida bolalar yog'inning har xil turlari - yomg'ir, qor, do'l, tuman, qirov, buldurug' haqida tasawurga ega bo'ladilar.

Bolalar asta-sekin ob-havoni kuzatish natijalarini kundaliklari va sinf tabiat kalendarida har kuni belgilab borishga odatlanadilar. Ob-havo va shamolning kuchi, sekundiga necha metr tezlikda esgani darslikda keltirilgan shartli belgilar bilan belgilanadi.

Ob-havoni kuzatishdan tashqari o'quvchilar o'simlik va hayvonlar hayotidagi mavsumiy hodisalarni payqashga o'rganib boradilar. Bolalar o'simliklar faqat tabiatni bezatib qolmasdan, balki odamlar va hayvonlar uchun zarur ekaniini bilib oladilar: ular oziq beradi, havoni hayot uchun zararli gaz va changlardan tozalaydi.

3 - 4 - sinflarda o'z joyi tabiati va odamlar mehnatini muntazam kuzatish davom ettiriladi. Ularning natijalari tabiat va mehnat kundaligida qayd qilib boriladi. Kuzatishlar kalendar jonli, hujjatli xarakterga ega bo'lishi uchun unga sarg'aygan yoki hali yashil bo'lgan bargchalarni, shuningdek, yilning hozirgi vaqtini va odamlar mehnatini xarakterlovchi suratlar (o'quvchilar top-gan)ni yopishtirish lozim. O'qitish jarayonida tabiat va mehnat kalendarining roli, agar o'qituvchi u bilan ishni har kuni to'g'ri tashkil etib borsa, ancha ortadi. Kalendarga maxsus ajratilgan vaqtda (3-5 daqiqa) har kuni kuzatishlarning natijalarini kiritib borish ishning bu turiga turg'un qiziqishning paydo bo'lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: “o'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G'ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: “Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.

5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.

6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashiriyoti. 2018.

8 -Amaliy mashg'ulot: Tabiatshunoslik darslarida labarotoriya mashg'ulotlari (2 soat)

Mashg'ulotdan maqsad:Tabiatshunoslik darslarida olib boriladigan labarotoriya mashg'ulotlari to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish, tabiatshunoslik darslarida labarotoriya mashg'ulotlari tashkil qilish yo'llari haqida tasavvur va tushunchalar hosil qilish.

Kerakli jihozlar:Labarotoriya mashg'ulotlari mobaynida o'simlik va hayvonot olamidan namunalar olish uchun papka, karton qutichalar, bankalar.

Talaba bilishi kerak:

- labarotoriya mashg'ulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- tabiatshunoslik darslarida olib boriladigan kuzatishlarni.

Talaba bajarishi kerak:

- tabiatshunoslik darslarida labarotoriya mashg'ulotlarini olib borishi.

Ishni bajarish tartibi:

-labarotoriya mashg'ulotlarining tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining ma'lumoti;

- talabalar ishtirokida tabiatga kuzatishlar tashkil qilish;
- kuzatishlar asosidagi fikr-mulohaza va xulosalarni daftarga qayd qilish;
- talabalar bilimni nazorat qilish va baholash.

Umumiy ma'lumot: Laboratoriya mashg'uloti - o'qitish metodi bo'lib, uning yordamida o'rganilayotgan hodisa qonuniyatini aniqlashga yordam beruvchi sharoitlar yaratiladi. Laboratoriya mashg'ulotini o'tkazishda o'quvchilarda boshqa metodlar bilan egallash mumkin bo'lmagan tabiatshunoslik tasavvurlari shakllanadi. Tajribalar atrof olamni bilib olishning qiziqarli va samarali metodidir. Ular ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, kuzatuvchanlik, mantiqiy tafakkur va nutqni mashqlantirishda katta ahamiyatga ega. U dunyoning moddiyligini, uni idrok qilib olish mumkinligini tasdiqlovchi har xil tabiat jismlarining xossalarini bilib olishning chinakam ilmiy metodidir.

Laboratoriya mashg'uloti mavhum tushunchalarni aniq tushunchalarga aylantirishda bolalarga yordam beradi. Masalan, ular faqat tajriba jarayonidagina termometrning simob ustuni haroratning o'zgarishiga qarab ko'tarilishi va pasayishiga ishonch hosil qiladilar. Faqat tajribagina suvning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ko'rsatadi.

Oddiy laboratoriya mashg'uloti o'quvchilar tomonidan uy sharoitlarida, o'quv-tajriba maydonchasida yoki tirik tabiat burchagida mustaqil bajariladi. Murakkabroq laboratoriya mashg'ulotini o'qituvchi darsda namoyish qiladi. Shuni esda tutish kerakki, mazmuni jihatidan eng oddiy laboratoriya mashg'uloti faqat aniq bilim berishi bilangina emas, balki kuzatish jarayonini fahmlashga, uning natijalarini ta'riflashga yordam berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Materialni mustahkamlash uchun o'qituvchi namoyish qilgan va o'quvchilarning o'zlari o'tkazgan tajribalarning rasmini chizish yoki ularni ta'riflab yozish, ba'zi hollarda uni ham, buni ham bajarishlozim. Asbob va moddalar bilan ishlashda ehtiyotlikni talab qiluvchi tajribalarni o'qituvchining o'zi o'tkazadi. Har qaysi tajribani boshlashdan oldin

o'quvchilarga uning maqsadini, tajriba o'tkazishda nima uchun xuddi shu asbob va moddalar olinganligini yaxshilab tushuntirish, tajribaning o'tkazilishini hikoya qilib berish rejasinituzishlozim.

Masalan, "Ko'p yillik manzarali va piyozli sabzavot o'simliklarni ekish muddatlarining gullash muddati va mo'lligiga ta'siri" mavzusidagi tajribani (4-sinf) keltiramiz. Tirik tabiat burchagi yoki o'quv - tajriba maydonchasida o'quvchilar tajriba va kontrol o'simliklarining o'sishini parallel holda kuzatib boradilar, ularning rivojlanishini taqqoslaydilar, tajriba ishlari natijalarini qayd qilib boradilar. O'quvchilar tajriba qo'yilishining rasmini chizadilar, daftarlariga xulosalarni yozadilar (tajriba va nazorat qilinayotgan o'simliklar hosilidagi farqlarni belgilaydilar). Bu tajriba o'quvchilar materialni chuqurroq o'zlashtirib olishlari uchun mavzuni o'rganishdan oldinroq o'tkaziladi.

Agar o'qituvchi sinf oldiga quyidagicha muammoli savollar qo'ysa tajriba o'quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi: Qanday isbot qilish kerak? Qanday aniqlash kerak? Tajriba davomida o'qitavchi hamma vaqt o'quvchilar e'tiborini borayotgan jarayonlarga qaratishi, ular tafakkurini ushbu savollarga yo'naltirishi kerak: Siz hozir nimani ko'rayapsiz? Borayotganlarni qanday tushuntirish mumkin? Nima uchun siz shunday hisoblaysiz? Tajriba tagallangach, o'quvchilar shunday xulosaga olib kelinadiki, uning asosida o'quvchilar qaysi ehtimol to'g'ri, qaysilari xato ekanligiga ishonsinlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: "o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.

3. G`ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: “Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2016.

4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho`lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.

5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.

6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o`qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashiriyoti. 2018.

9 -Amaliy mashg`ulot: Tabiatshunoslik darslarida amaliy ishlar

Mashg`ulotdan maqsad:Tabiatshunoslik darslarida olib boriladigan amaliy ishlar to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish.

Kerakli jihozlar: Amaliy ishlarga oid manbalar: o'simlik va hayvonot olamidan namunalar olish uchun papka, karton qutichalar, bankalar.

Talaba bilishi kerak:

- amaliy ishlarga oid ma'lumotlarni;
- tabiatshunoslik darslarida olib boriladigan kuzatishlarni.

Talaba bajarishi kerak:

- tabiatshunoslik darslarida amaliy ishlarni olib borishi.

Ishni bajarish tartibi:

- amaliy ishlarning tabiatshunoslik darslaridagi ahamiyati haqida o'qituvchining ma'lumoti;
- talabalar ishtirokida tabiatga kuzatishlar tashkil qilish;
- kuzatishlar asosidagi fikr-mulohaza va xulosalarni daftarga qayd qilish;
- talabalar bilimni nazorat qilish va baholash.

Umumiy ma'lumot: Tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirishda amaliy ishlar katta rol o'ynaydi. Amaliy ishlarga o'quvchilarning ekskursiya vaqtida tabiiy materiallar yig'ish, maktaboldi yer maydonidagi va tirik tabiat burchagidagi o'simliklarni parvarish qilish, gerbariy va kolleksiyalar tuzish, mulyaj, maket, ko'rgazmali qurollar tayyorlash kabi faoliyat turlari kiradi.

Tabiatshunoslik bo'yicha amaliy ishlar dastur va darsliklarga kiritilgan, ularning bajarilishi majburiydir. Ular boshlang'ich sinfda politexnik ta'limni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Amaliy ishlarning samaradorligi o'quvchilarning ularni bajarishga tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Amaliy ishlarga tayyorlanish odatda uzoq vaqtni talab qiladi va bir necha bosqichdan iborat bo'ladi.

1.O'quvchilarning nazariy tayyorlanishi. Masalan, maktaboldi yer maydoniga sabzavot va manzarali o'simliklarni o'tqazish oldidan o'quvchilar ularning urug'larining unib chiqishini uzoq vaqt kuzatadilar. Uyda, tirik tabiat burchagida

yoki darsda bolalar o'simlik urug'dan asta-sekin va muayyan sharoit (namlik, havo, issiqlik) bo'lgandagina rivojlanishini aniqlaydilar.

2. Amaliy ishda o'quvchilarning barchasi qatnashishlari lozim. Buning uchun bolalarni ish bajarishga kerak bo'ladigan ish qurollari, asbob-uskuna va materiallar bilan ta'minlash zarur. Masalan, gerbariy tuzish uchun yig'ilgan o'simliklar solinadigan papka, qalin qog'oz yoki karton varag'i, ip, igna bo'lishi lozim.

3. O'quvchilarning amaliy ishlari o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. U ishni bajarishda qiynalganlarga o'z vaqtida yordam berishi lozim. Biroq bunda bolalarning faolligi hamda mustaqilligini chegaralamaslik kerak.

4. O'quvchilarning ishlari albatta tahlil qilinadi va baholanadi, muvaffaqiyatli bajarganlar rag'batlantiriladi.

Bu ishlarning bajarilishi o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda, bilimlarni konkretlashtirish va mustahkamlashda o'qituvchiga yordam beradi.

Barcha tajriba va amaliy ishlar «Kundalik kuzatishlar daftari» ga qayd qilinadigan yozuvlar bilan birga olib borilishi kerak. Shuningdek, rasmlar chizish, plastilindan obyektlar yopishtirish, tabiiy materiallarni modellashtirish ham tavsiya qilinadi. Bunda o'quvchilar tasvirlanadigan jism yoki hodisaga diqqat bilan qaraydilar, ulardagi ilgari e'tibor berilmagan xususiyatlarni payqaydilar. Amaliy ishlar vaqtida xulosalarni yozib borish yoki rasmlar ostiga yozuvlar yozish bolalarga ta'riflarni aniqlab olishga, tabiatshunoslik atamalarini esda saqlashga yordam beradi.

Amaliy ishlar quyidagi tartibda olib boriladi:

- ish maqsadini e'lon qilish;
- o'qituvchining yo'l-yo'riqlar berishi;
- topshiriqni tushuntirish;
- materiallarni tarqatish;
- kuzatish;
- o'tkazilgan ish natijalarini tushuntirish - suhbat;
- xulosalarni daftarga yozish;
- rasmlar chizish.

Amaliy ish vaqtida o'qituvchi topshiriq tushunarsiz tuyulganda yoki murakkab bo'lganda ayrim o'quvchilarga yordamlashadi. Lozim bo'lsa ish mazmunini butun sinfga takroran tushuntirish kerak bo'ladi. Amaliy ishning asosiy qiyinchiligi kuzatilayotgan hodisalarni anglash, eng muhimlarini ajrata bilish, xulosalarni ifodalay olishdir.

Amaliy ishlar kuzatuv va tajribalarni to'ldiradi, tabiiy materialni o'rganishda bolalarni birlashib ijodiy ravishda ishlashga o'rgatadi.

Amaliy ishlar dars jarayonida, ekskursiyalarda olingan bilimlarni har tomonlama mustahkamlashga imkon beradi. Bundan tashqari, amaliy ishlar bolalarda mehnat malakalari va ko'nikmalari hosil bo'lishiga, mustaqil ishlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: "o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G'ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.
6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. " Barkamol fayz media" nashiriyoti. 2018.

10 -Amaliy mashg'ulot: Tabiatshunoslik darslarida didaktik o'yin, o'quv munozaralari, burch va ma'suliyatini shakllantirish metodlari guruhi (2 soat)

Mashg'ulotdan maqsad: Tabiatshunoslik darslarida didaktik o'yin, o'quv munozaralari, burch va ma'suliyatini shakllantirish metodlari tashkil qilish ko'nikmalarini shakllantirish. O'quvchilarda didaktiv o'yinlardan foydalanib dars ishlanmalarini tuzish usullari haqida tasavvur va tushunchalar hosil qilish va ularni tayyorlashni amaliyotda ko'rsatish.

Kerakli jihozlar: Tabiatshunoslik darslarida didaktik o'yin, o'quv munozaralari, burch va ma'suliyatini shakllantirishga doir suratlar tasvirlangan rangli plakatlari, videofilm.

Talaba bilishi kerak:

- didaktik o'yin, o'quv munozaralari, burch va ma'suliyatini shakllantirishga doir o'yinlar to'g'risida;
- didaktik o'yinlardan foydalanib darslar tashkil etishni.

Talaba bajarishi kerak:

- didaktik o'yin, o'quv munozaralari, burch va ma'suliyatini shakllantirishga doir o'yinlardan foydalanib dars ishlanmalari tayyorlashi,

Ishni bajarish tartibi:

- talabalar tabiatshunoslik va didaktik o'yinlarga oid adabiyotlardan ma'lumotlar yig'adilar;
- talabalarga didaktik o'yinlardan foydalanib darslar tashkil qilish haqida bilimlar berish;

- didaktik o`yin, o`quv munozaralari, burch va ma`suliyatini shakllantirishga doir subbat;
- didaktik o'yinlardan foydalanib dars ishlanmalari tayyorlashni amalda ko'rsatish;
- didaktik o`yin, o`quv munozaralari, burch va ma`suliyatini shakllantirishga doir o'yinlardan foydalanib dars ishlanmalari tayyorlashi;
- talabalar bitimini nazorat qilish va baholash.

Umumiy ma'lumot: Didaktik o'yinlar - ta'lim xarakteriga ega bo`lib, o'quvchilar bilimini mustahkamlash, o`quv munozaralari, burch va ma`suliyatni shakllantirish, umumlashtirish va tizimga solishga yordam beradi, atrofdagi narsalarga hamda tabiat hodisalariga qiziqishni oshiradi. Umumlashtirish, taqqoslash, muhimini ajratish, bog'lanish va munosabatlar o'rnatish, xulosa chiqarishni talab etadigan o'yinlar eng samarali hisoblanadi. Ba'zi mashg'ulotlarni boshidan oxirigacha o'yin shaklida tashkil etish mumkin. Ayrim mashg'ulotlarda darsni mustahkamlashgako'proq e'tibor qaratiladi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning bilim olish faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Didaktik o'yinli darslarning muvaffaqiyati, avvalo o'quvchilarning mazkur o'yinlarga puxta va qizg'in tayyorgarlik ko'rishlariga, o'qituvchining mazkur faoliyatni tashkil etish hamda mohirlik bilan boshqarishiga bog'liq.

O'qituvchi didaktik o'yinli darslarni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga amal qilishi lozim:

1. Didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi
2. maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
3. Muhim muammolarga bag'ishlanishi va ular o'yin davomida hal qilinishi;
4. Barkamol inson shaxsini tarbiyalash tamoyillariga sharqona odob axloq normalariga mos kelishi;
5. O'yin strukturasi mantiqiy ketma ketlikda bo'lishi;
6. Mazkur darslarda didaktik prinsiplarga amal qilish va eng kam vaqt sarflagan holda ulkan samaraga erishish kerak.

Quyida tabiatshunoslik darslarida qo'llash mumkin bo'lgan didaktik o'yinlardan namunalar keltiramiz:

“Tabiat auksioni” o'yini

O'yinda barcha ishtirokchilar qatnashadilar. O'qituvchi bitta o'simlik anor nomini aytadi. Masalan: anjir, ajriq, arpabodiyon va kim ko'p o'simlik nomini aytsa u g'olib deb topilib sovg'a topshiriladi.

“Tasvir bo'yicha o'simlik va hayvonni topish” o'yini

Sinf rahbari turli xil o'simlik va hayvon turlari tasvirlangan, lekin nomi yozilmagan rasm-suratlarini tayyorlaydi. Shartga ko'ra bolalar rasmga qarab o'simlik va hayvonlarni nomini aytadilar. Kim to'g'ri javob bersa unga shu o'simlik yoki hayvon rasmi beriladi. Kim ko'p rasm to'plasa, ug'olib hisoblanadi.

“Diqqat qil” o'yini

O'yin ishtirokchilari davri-doir shaklida turadilar. Sinf rahbari o'simlik va hayvon nomini aytib ularni qayerlarda o'sishi va yashashini tushuntiradi. Masalan: qamish-ko'l bo'yida o'sadi, yoki qamish-tog' tepasida o'sadi; Sinf rahbarining gapi noto'g'ri boiishi mumkin. Shartga ko'ra o'yin ishtirokchilari “ha” va “yo'q” javoblari orqali javob bersa o'yindan chetlashtiriladi, davraga qolganlar esa g'olib hisoblanadi.

Topishmoq ayt, topamiz o'yini

O'yinning didaktik vazifasi - Buyumlarni ta'riflash, ta'rifi bo'yicha topish.

O'yin harakatlari- O'simliklar haqida topishmoqlar aytish va ularga javob topish.

O'yinning sharti - O'simliklar quyidagi tartibda ta'riflanadi: dastlab shakli, keyin rangi, hidi haqida gapiriladi. Ta'riflashda buyumning nomini aytish mumkin emas.

O'yinning borishi - Sabzavot va mevalarni stolga shunday qo'yingki, ularning shakli va rangi bolalarga yaxshi ko'rinadigan bo'lsin,

Bu o'quvchi biror sabzavot yoki mevani ta'riflaydi, ikkinchisi ta'rifga asoslanib, uning nomini aytadi. Ta'riflayotgan o'quvchi hadeb o'sha meva yoki sabzavotga qarayvermasligi kerak. Aks holds ikkinchi o'quvchi uning nomini osongina topadi.

Aytilgan daraxt oldiga chopib boring o'yini

O'yinning didaktik vazifasi - Nomi aytilgan daraxtni darrov topishni o'rganish.

O'yin harahatlari - O'yin boshlovchining oldidan nomi aytilgan daraxt tomonga qochish.

O'yinning sharti - O'simliklarning nomi tez-tez o'zgartirib turiladi. Nomi aytilgan daraxt oldida uzoq to'xtab turish mumkin emas. Bir xil nomdagi daraxtlarning biri yonidan ikkinchisi yoniga chopib o'tish mumkin.

O'yinning borishi - O'qituvchi o'yinni boshlovchi bolaga faqat nomi aytilgan daraxt yonida turmagan bolalarni ushlash mumkinligini tushuntiradi.

Avval belgilari yaqqol ifodalangan, so'ngra esa tashqi ko'rinishidan, o'xshash bo'lgan daraxtlarning nomi, masalan, terak va chinor, qayrog'och va tut aytiladi. Bolalar qaysi daraxtning nomi aytilganligini diqqat bilan eshitishlari va “Bir, ikki, uch - yugur!” deb ruxsat berilgach, nomi aytilgan daraxt yoniga yugurib borishlari kerak

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.
2. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: "o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
3. G'ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.
6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. " Barkamol fayz media" nashiriyoti. 2018.

11- amaliy mashg'ulot. Tabiiashunoslik darslarida nazorat va o'z-o'zini nazorat (og'zaki va yozma) laboratoriya va amaliy ish o'zaro nazorat varag'i yordamida, EXMning nazorat dasturlari vositasida metod guruhi

Mashg'ulotdan maqsad: Tabiiashunoslik darslarida nazorat va o'z-o'zini nazorat (og'zaki va yozma)qilishi, laboratoriya va amaliy ish jarayonida o'zaro nazorat varag'i yordamida, EXMning nazorat dasturlari vositasida o'quvchilar bilimini nazorat qilishning zamonaviy usullarini o'rgatish.

Kerakli jihozlar: 1-2 sinf "Atrofimizdagi olam" va 3-4 sinf "Tabiatshunoslik" darsliklari, bajarilgan uy vazifalari va amaliy ishlar namunalari.

Talaba bilishi kerak:

-tabiatshunoslik darslarida o'quvchilarning bilim, o'quv va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni.

Talaba bajarishi kerak:

-tabiiashunoslik darslarida o'z-o'zini nazorat (og'zaki va yozma) qilishi, laboratoriya va amaliy ish jarayonida o'zaro nazorat varag'i yordamida, EXMning nazorat dasturlari vositasida o'quvchilar bilimini nazorat qilishning zamonaviy usullarini o'rgatish dasturlari vositasida o'quvchilar bilimini nazorat qilishning zamonaviy usullarini o'rganish.

Ishni bajarish tartibi:

-tabiatshunoslik darslarida o'quvchilar bilimi, o'quv va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni DTS dan o'rganish;

- amaliyot davrida tabiatshunoslik darslarida o'quvchilar bilimini nazorat qiladilar.
- o'quvchilar bilimini baholaydilar.

Umumiy ma'lumot: Tabiiashunoslik darslarida o'z-o'zini nazorat (og'zaki va yozma) qilishi, laboratoriya va amaliy ish jarayonida o'quvchilarning og'zaki va

yozma javoblari ularning bilimlarini aks ettiradi va o'qituvchi tomonidan har bir o'quvchining qanday o'zlashtirayotganligini, u o'quv materialini qanchalik egallaganligini ko'rsatuvchi baholar bilan qadrlanadi. Shuning bilan birga ular ma'lum darajada o'qitishning sifatini ham aniqlaydi, chunki o'quvchilar bilimi uning asosiy o'lchovidir.

Bilimlarni baholash intensivligini oshirish uchun bir necha o'quvchilardan bir vaqtda so'rash uslubini qo'llash mumkin. Masalan, bir o'quvchi sinf oldida o'qituvchiga javob beradi. O'quvchilar bilimini baholashda materialni ular qanchalik aniq va ravon tushunganliklari, javobning aniqligi va to'liqligi, shuningdek uning shakli, ya'ni bilimni bayon qilishning izchilligi va to'g'riligi hisobga olinadi.

Tabiiyshunoslik darslarida nazorat va o'z-o'zini nazorat (og'zaki va yozma) laboratoriya va amaliy ish o'zaro nazorat varag'i yordamida, EXMning nazorat dasturlari vositasida o'quvchilar bilimini nazorat qilishning zamonaviy usullarini o'rgatish jarayonida berilayotgan ma'lumotning o'quvchi tomonidan qisqa vaqt ichida kafolatlangan yuqori natijalar bilan o'zlashtirishni ta'minlaydigan ilg'or pedagogik innovatsion hamda axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) bugungi kunning talabi bilan jahon standarti asosida maktab tizimiga sekin-asta bo'lsada kiritilmoqda.

Tabiatshunoslikni o'qitishda mul'timedia vositalaridan foydalanishning afzaliklari. Mul'timedia vositalari asosida o'quvchiga ta'lim berish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Hususan tabiatshunoslik darslarini yuqorida tilga olingan texnologiyalar yordamida rivojlantirishdan avval ularni ko'r-ko'rona qo'llashdan farqli o'laroq, shu texnologiyalarni fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalda qo'llashning natijasi yuqori bo'ladi. Berilayotgan ma'lumotning o'quvchi tomonidan qisqa vaqt ichida kafolatlangan yuqori natijalar bilan o'zlashtirishni ta'minlaydigan ilg'or pedagogik innovatsion hamda axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) bugungi kunning talabi bilan jahon standarti asosida maktab tizimiga sekin-asta bo'lsada kiritilmoqda.

Tabiatshunoslikni o'qitishda mul'timedia vositalaridan foydalanishning afzaliklari. Mul'timedia vositalari asosida o'quvchiga ta'lim berish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Hususan tabiatshunoslik darslarini yuqorida tilga olingan texnologiyalar yordamida rivojlantirishdan avval ularni ko'r-ko'rona qo'llashdan farqli o'laroq, shu texnologiyalarni fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalda qo'llashning natijasi yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T., 2005.

2. Tabiiy fanlar [Matn]: 1-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 88 b.
3. G`ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: “Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2016.
4. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho’lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
5. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.
6. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o’qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashiriyoti. 2018.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. M.Nuritdinova. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi. T.:O'qituvchi 2005 y.
2. A.Baxramov. Tabiatshunoslik 4- sinf Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik T: Sharq NMIU 2013.
3. A.Baxramov. Tabiatshunoslik 3- sinf Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik T.: Cho'lpon NMIU 2008.
4. P.G'ulomov, Mirzaaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2- sinf uchun darslik T.: Cho'lpon NMIU 2012.
5. A.G.Girigoryans. Atrofimizdagi olam 1-sinf uchun darslik. T: Cho'lpon NMIU 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz -Toshkent, O'zbekiston, 2017. -488b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. -56b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravoniigining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 104 b.
10. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
11. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o'qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashriyoti. 2018.
12. Tabiiy fanlar [Matn]: 1-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 88 b.
13. Tabiiy fanlar [Matn]: 2-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
14. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-inf. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.-2019.
15. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2020.

Internet saytlari

15. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
16. www. Ziyonet.uz
17. www. edu. Uz
18. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

GLOSSARIY

O'zbek tilida	Русский на вашем языке	English in your language
Aksiologiya - yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, “hurmat qilaman”, “isbotlanmaydigan taʼlimot” maʼnolarini bildiradi.	Аксиология - Греческое слово означает «я уважаю», «ненадежную доктрину».	Axiology - Greek word means "I respect", "unreliable doctrine."
Amaliy ishlar – oʻquvchilarni ular faoliyati jarayonida har xil mehnat operatsiyalariga oʻrgatish metodidir.	Практическая работа - это способ обучения учеников различным операциям в их деятельности.	Practical work is a way of educating pupils in different work operations in their activities.
Bakalavriat - oʻrta maxsus, kasb-xunar taʼlimi negizida oliy taʼlim yunalishlaridan biri buyicha fundamental bilimlar beradigan, Oʻqish muddati turt yildan kam bulmagan tayanch oliy taʼlimidir	Бакалавр - это базовое высшее образование, которое обеспечивает базовые знания по одной из высших учебных специальностей на основе специализированного специального профессионального образования и не менее года обучения.	Bachelor is a basic higher education that provides basic knowledge on one of the higher education specialties on the basis of specialized special vocational education and is not less than a year of study.
Bilish, anglash - dunyo haqidagi yangi bilimlar xisoblanadigan subyekt va obyektning uzaro taʼsirini, vokelikning ruxiyatda kayta taʼsir etilishi va aks ettirish jarayonidir.	Знание, Понимание - это процесс воздействия на субъект и объект новых знаний о мире, преклонение вокализма и его отражение .	Knowing, Understanding is the process of influencing the subject and the object of the new knowledge about the world, the reverendment of the vocalism and its reflection .
Dars - maʼlum Maqsad asosida, belgilangan vakt da aloxida, bir xil yoshdagi Oʻquvchilar, yoshlar bilan Oʻqituvchi faxbarligida olib boriladigantaʼlim jarayoni.	Целью является основным блюдо м , указанный иногда, того же возраста студенты,Процес с проведения молодежи под руководством Учителя.	The goal is a main course , defined at times, same age Students, The process of conducting the youth under the guidance of the Teacher.
Darslik - maxsus ravishda Oʻquvchilar uchun yozilgan kitob darslik deb ataladi.	учебник - книга, специально написанная для читателей, называется учебниками.	Textbook - a book that is especially written for readers is called textbooks.

Jamoa - insonparvrlilik va javobgarlik ma'suliyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar xamda xamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyligi, jamoasidir.	Команда - это группалюдей, основанная на людских и ответственных обязанностях и основанная на совместных социальных мероприятиях.	The team is a team of people, based on human-oriented and accountable responsibilities, and based on collaborative social activities.
Idrok - mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta'sir etishi davomidagi bir butun xodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.	Восприятие - это воплощение всех событий или объектов в сознании человека в течение этого периода времени в их сенсорных органах.	The perception is the incarnation of all events or objects in the mind of the human being during this period of time in their sensory organs.
Maqsad - bulgusi natijalar haqida xar doim aqlan uylab kurilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar	Цель состоит в том, чтобы иметь видение будущего, разработанные мнимые сценарии, планы на будущее,	The goal is to have the vision of the future, the imaginary scenarios developed, the future plans,
Pedagogik masala - pedagogik jarayonning asosiy birligi, uziga xos tizimdir. U vokalikni bilish va kayta yaratish zaruriyati bilan bog'liq tafakkur kilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim katnashchilarining ma'lum bir Maqsadini kuzlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyatdir.	Педагогическая проблема является основной единицей педагогического процесса. Это педагогическая ситуация, связанная с необходимостью знать и воспроизводить вокал. Это скромная ситуация в образовании и воспитании, которая имеет специфическую задачу педагогов.	The pedagogical problem is the basic unit of the pedagogical process. It is a pedagogical situation that is related to the need to know and reproduce the vocal. It is a modest situation in education and upbringing, which has a specific objective of educators.
Pedagogik muloqot - ta'lim oluvchilarning Maqsadlari xamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qullab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.	Педагогическое общение - цели педагогов Целью обучения является обеспечение всестороннего понимания вопросов установления и развития взаимопонимания, организации взаимопонимания и поддержки на основе	Pedagogical Communication - The Purposes of the Educators The purpose of the training is to provide a comprehensive understanding of the issues of establishing and developing mutual understanding, the

	содержания совместной работы комитетов	organization of mutual understanding and support based on the content of the joint work of the committees
Pedagogik takt- shaxslar faoliyatini shturli doiralarida ular bilan muloqotda olib borishning pedagogik tamoyili, ulchovi, talabalar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini xisobga olgan holda tugri mulokotda olib borish malakasi.	Педагогическая тактика - это педагогический принцип взаимодействия с людьми в сфере взаимодействия со студентами в сфере коммуникации, умение общаться конструктивно с учениками с учетом их личности.	Pedagogical tactic is the pedagogical principle of interacting with individuals in the sphere of interaction with students in the sphere of communication, their ability to communicate in a constructive manner with students taking into account their personality.
Proyektiv malaka - malakaning maxsus turi bulib, kutilgan pedagogik natijalarni amaliy ta'lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.	Проекция - это особый тип квалификации, ожидаемые педагогические результаты в тематических планах обучения и подготовки.	Projection is a special type of qualification, expected pedagogical outcomes in thematic education and training plans.
Tadqiqot obyekti - ziddiyat va muammoli zifat tugdiruvchi, olib borilishga karatilgan ilmiy taxlilga muvofiq obyekti.	Объект исследования - конфликтный и проблемный объект, требующий научного интеллекта.	Object of research - conflict and problematic an object requiring scientific intelligence to find out.
Tadqiqot predmeti – bevosita olib borilishni lozim bulgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kashf etadigan obyektning mohiyati, ma'lum bir tomoni, xususiyati.	Предметом исследования является тот факт, что его необходимо непосредственно изучить, и важно, чтобы теоретические или практические	The subject of the research is the fact that it is necessary to be directly studied and it is important that theoretical or practical

V I L O V A

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



Ro'yhatga olindi: BD-5111700-3.04

2018 yil 18' 08'

TAHATSHUNOSLIK VA UNI O'QITISH METODIKASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100 000 -	Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 -	Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111700 -	Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish

Toshkent-2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 201 8-yil "13" "08" dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201 8-yil "06" "08" dagi 244 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: Voxidova N.X. Nizomiy nomidagi TDPU, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida dotsenti, p.f.n.

Saidmuratov Sh. Nizomiy nomidagi TDPU, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi.

Taqrizehilar: Mahkamova N.U. I.A.Karimov nomidagi TDPU O'zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti, p.f.n.

Tojiyev M. Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Toshkent pedagogika kolleji direktori

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv - uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201 8 - yil "06" "06" dagi 11 -sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

